

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TABIY FANLAR FAKULTETI

5110400- BIOLOGIYA O'QITISH METODIKASI

ta'limyo`nalishi IV kurs"A" guruhi talabasi

BEKQULOVA DILDORA SHUHRATOVNANING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: TABIATNI MUHOFAZA QILISHNING TA'LIMIY VA
TARBIYAVIY XUSUSIYATLARI**

Ilmiy rahbar: dots. Shamsidinova G. D.

Navoiy – 2016 yil

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3-5
 I-BOB. TABIATNI MUHOFAZA QILISHNING TA'LIMiy VA TARBIYAVIY XUSUSIYATLARI	
1.1.TA'LIM MUASSASALARIDA "EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI" FANINING O'QITILISHI.....	6-9
1.2. EKOLOGIK TA'LIM- TARBIYA- MADANIYAT- MAFKURA - ONG TUSHUNCHALARINING TAHLILI.....	9-15
1.3.EKOLOGIK TARBIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH MASALALARI.....	16-23
 II-BOB.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA MAVJUD BO'LGAN EKOLOGIK MUAMMOLARNINGHAL ETISH STRATEGIYASI	
2.1.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TABIATINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR.....	24-29
2.2. O'ZBEKISTON HUDUDIDAGI EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI.....	29-33
2.3. TABIATNI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	33-42
2.4.UMUMBASHARIY EKOLOGIK HAMKORLIK MASALALARI....	42-57
XULOSA.....	58-69
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	

KIRISH

“Insoniyat hayoti, dunyo tamaddunining buguni va ertasi ekologik muammolarning hal qilinishiga bog’liqdir. Chunki ekologik muammolar o’zining xavflilik darajasiga ko’ra yadro qurolidan so’ng ikkinchi o’rinda turadi.”

Islom Karimov

Mavzuning dolzarbligi. Tabiatni muhofaza qilish, barchamiz uchun aziz bo’lgan yer, suv, havo, yer osti hamda yer usti boyliklarini avaylab –asrash, ularga nisbatan mehr-muhabbatli bo’lish, tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish bizga ota-bobomizdan meros bo’lib qolgan muhim qadriyat va hayotiy haqiqatdir. Tabiatni muhofaza qilishning ta’limiy va tarbiyaviy xususiyatlarini shakllantirish, o’sib kelayotgan yoshlarni haqiqiy vatanparvar, fidoiy qilib tarbiyalash barchamizni muqaddas burchimizdir.

Respublikamizda “Ta’lim to’g’risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” kabi tarixiy hujjatlarning qabul qilinishi ta’lim tizimini tubdan isloh qilishni, mavjud ta’lim tizimi asosida yangicha, ilg’or ta’lim texnologiyalarini yaratishni taminlab berib, umumiy ta’lim, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta’lim muassasalarida sifatli ta’lim olish, uzluksiz malaka oshirib borish huquqini va keng imkoniyatlarni nazarda tutadi.

Ta’lim dargohlarida ta’lim oluvchilar bilimini yanada oshirish, ularni erkin fikrlovchi, izlanuvchan, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash uchun, rivojlanib borayotgan fan va texnikaning ilg’or yutuqlaridan foydalanish, tadqiqot natijalarini umumta’lim fanlarini o’qitishda qo’llash g’oyat katta ahamiyat kasb etadi

Atrof muhit tozaligini saqlash, kelib chiqishi mumkin bo’lgan ekologik muammolarni oldini olish, tirik tabiatda ekologik muvozanatni barqaror ushlab maqsadida ta’lim muassasalarida mustahkam ekologik ong va madaniyat

shakllanishi uchun bajariladigan ishlar zahirida tabiatni muhofaza qilish muammolari eng asosiy o`rinda turadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Tabiatni muhofaza qilishning ta`limiy va tarbiyaviy xususiyatlarini ochib berish, yohlarda ekologik ta`limni amalga oshirish bosqichlari, oila, bolalar bog`chasi, maktab, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta`lim muassasalarida ekologik ta`limga oid ishlarning amalga oshirilishini ta`minlash ishning mazmun mohiyatini belgilab beradi. O`zbekiston respublikasida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga o`tishning maqsad va vazifalariga muvofiq tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi takomillashtirilmoqda, atrof-muhit sohasiga oid qator strategik hujjatlar, mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini qayta texnik isloh qilishga yo`naltirilgan hukumat qarorlari qabul qilindi va amalga oshirilmoqda. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlarining amalga oshirilishi natijasida Respublikada ekologik holatning barqarorlashuvi tendensiyasi kuzatilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari: Ushbu Bitiruv malakaviy ishni bajarish asnosida quyidagi vazifalarni bajarishni o`z oldimga maqsad qilib qo`ydim:

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati hamda tadqiqot predmeti va ob`ekti, mavzuning o`rganilish darajasining qiyosiy tahlili imasalari yoritib berilgan.

Asosiy qism I bobda: Tabiatni muhofaza qilishning ta`limiy va tarbiyaviy xususiyatlari, ta`lim muassasalarida "Ekologiya va atrof muhit muhofazasi" fanining o`qitilishi, ekologik ta`lim- tarbiya- madaniyat- mafkura - ong tushunchalarining tahlili, ekologik tarbiya jarayonlarini amalga oshirish masalari yoritib berilgan.

Asosiy qism II bobda: O`zbekiston respublikasi hududida mavjud bo`lgan ekologik muammolarning hal etish strategiyasi, respublika tabiatining hududiy xususiyatlari haqida umumiy ma`lumotlar, O`zbekiston hududidagi ekologik

muammolar va ularni bartaraf etish masalalari, tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari hamda umumbashariy ekologik hamkorlik masalalarito'g'risidagi fikrlar yoritilgan.

Xulosa qismida:Tabiatni muhofaza qilishning ta'limiy va tarbiyaviy xususiyatlariga oid uslubiy va amaliy takliflar, uslubiy tavsiyalar keltirilgan.

Bundan tashqari ishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Mavzuning amaliy ahamiyati: O'zbekiston Respublikasi mustaqilliginingdastlabki yillaridanoq,ya'ni 1992 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining to'laqonli a'ziligiga qabul qilinib,uning qator dasturlari hamda maxsus tashkilotlari:atrof-muhit bo'yicha YUNEP,BMT Rivojlanish Dasturi,ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha YUNESKO,Xalqaro meteorologik tashkilot,Sog'liqni saqlash xalqaro tashkiloti,Sanoat rivojlanishi bo'yicha YUNIDO hamda uning mintaqaviy komissiyalari: BMT Evropa iqtisodiy komissiyasi (EIK BMT) hamda Tinch oqian uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiya ESKATO bilan hamkorlikda harakat qilinmoqda.1992 yilda Rio-de Janeyroda o'tkazilgan BMTning "Atrof-muhit va rivojlanish masalasi"anjumani O'zbekiston uchun global ekologik barqarorlikka erishish yo'lidagi muhim omil bo'ldi.Mazkur anjumanda uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning yagona yo'li uning atrof- muhit muhofazasi bilan birgalikda uzviy olib borilishidir.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy ahamiyati:Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi 6 ta xalqaro konvensiya bo'yicha O'zbekistonning majburiyatlarini bajarish uchun ma'sul hisoblanadi. Respublikaning xalqaro konvensiyalarda ishtirok etishi, bir tomondan, mamlakat umumjahon ekologik jarayonga qo'shilishiga, ikkinchi tomondan O'zbekiston jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylanib,rivojlangan mamlakatlarning texnik va moliyaviy yordamini olishga, ishlab chiqarishga yangi zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga imkon yaratadi.

I-BOB. TABIATNI MUHOFAZA QILISHNING TA`LIMiy VA TARBIYAVIY XUSUSIYATLARI

1.1.TA`LIM MUASSASALARIDA “EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI” FANINING O`QITILISHI

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan respublikamizda “Ta`lim to`g`risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, 2005-2009 yillarda maktab ta`limini isloh qilish to`g`risidagi qarorlarining qabul qilinishi uzluksiz ta`limga bosqichma-bosqich o`tilishini belgilab berib, ta`lim jarayoniga mutloq yangicha yondashishni, umumta`lim muassasalari faoliyatini tubdan o`zgartirib, jahon ta`lim standartlariga javob beradigan, mukammal ilm dargohlarini bunyod etishni nazarda tutadi. Mazkur qarorga asosan Respublikamizning barcha hududlarida umumta`lim muassasalari qayta ko`rib chiqilib, zamonaviy o`quv qurollari bilan jihozlash ishlari davom etmoqda. Ta`lim dargohlarida o`quvchilar bilimini yanada oshirish, ularni erkin fikrlovchi, izlanuvchan, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash uchun o`quvchilarning puxta bilim olishlariga alohida e`tibor qaratilishi lozimdir.

Pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayoni – kasbga yo`llash; kasbga layoqatlilarni tanlash; kasbga tayyorlashdek umumiy vazifaga qaratilmog`i lozimdir. Bu juda murakkab jarayon bo`lib, ta`lim beruvchilardan juda aniqlikni, mohirona boshqarishni va izchil nazoratni talab etadi.

Ekologiya – yunoncha so`z bo`lib, uning ma`nosi tirik organizmlarning yashash sharoiti yoki tashqi muhit bilan o`zaro munosabatini bildiradi. Ekologiya termini fanga birinchi bo`lib, 1866 yil nemis biolog E.Gekkel tomonidan kiritilgan. Populyasiyalar, turlar, biosenozlar, biogeosenozlar va biosfera kabi tushunchalar ekologiya fanining manbai hisoblanadi. Shuning uchun ham ko`pincha umumiy ekologiya to`rt bo`limga bo`lib o`rganiladi: - Autekologiya (“autos” – yunoncha so`z bo`lib, “o`qi” degan ma`noni bildiradi) ayrim turlarning ular yashab turgan muhit bilan o`zaro munosabatini, turlarning qanday muhitga ko`proq va uzviy moslashganligini o`rganadi. - Populyatsiyalar ekologiyasi (“populyason”- fransuzcha so`z bo`lib, “aholi” degan ma`noni bildiradi) populyatsiyalar tuzilmasi va dinamikasi, ma`lum sharoitda turli organizmlar

sonining hamda ularning tashqi muhit bilan munosabatini o`rganadi. - Sinekologiya (“sin” – yunoncha soʻz boʻlib, uning maʼnosini “birgalikda” demakdir) biogeosenozning tuzilishi va xossalari, ayrim oʻsimlik va hayvon turlarining oʻzaro aloqasini ham ularning tashqi muhit bilan munosabatini oʻrganadi. - Ekotizimlarni tadqiq qilishning rivojlanishi biosfera (yunoncha “bios” – hayot, “sfera” shar) haqidagi taʼlimotni vujudga keltiradi. Sayyoramizda tarqalgan organizmlar, yaʼni yer qobigʻidagi mavjudotlar tizimi biosfera deb ataladi. Ekologik madaniyatni shakllantirish uchun avvalo, yoshlarda ekologik ongni tarbiyalash lozim. Buning uchun oila, bolalar bogʻchalari, maktab, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, oliy oʻquv yurtlari, mahallalar, jamoatchilik joylarida ekologik taʼlim va tarbiyani toʻgʻri amalga oshirishimiz zarur. Bizning fikrimizcha, yuqorida taʼkidlangan barcha taʼlim muassasalarida oʻqitish va tarbiyalash jarayonida ekologik taʼlim yetarlicha amalga oshirilmoqda.

Boʻlajak pedagoglarni taʼlim jarayoniga tayyorlash ishlari bir butunlikda tashkil etilsagina, bunday maqsadga erishish mumkin. Yaʼni kasbga yoʻllashda bolalarning iqtidoriga qarab, layoqatlilarini tanlash va kasbga tayyorlashga oʻtish mantiqan izchillik asosida bir-biriga bogʻliq holda amalga oshirilishi lozim.

Taʼlim jarayonida oʻquvchilarning qobiliyati, iqtidori, layoqati va imkoniyatlarini hisobga olib, ularni turli kasb-hunar kollejlariga yoʻnaltirish, ularni taʼlimning keyingi bosqichida, yaʼni kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarida muvaffaqiyat bilan oʻqishlari va kasb-hunar egallashlarida katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham maktablarda bolalarning iqtidori va layoqati aniq hisobga olinishi, mazkur tizimdagi ishlar rejali amalga oshirilishi zarur.

Oʻquvchilar dars jarayonida mavzularni puxta oʻzlashtirish orqali erkin fikrlashga va oʻz fikrini tortinmay bayon etishga, dunyoqarashini kengaytirishga, bilim doirasini chuqurlashtirishga, hayotiy jarayonlarga ijodkorlik bilan yondashishga, oʻzi amalga oshirayotgan faoliyat orqali yaratuvchanlik gʻoyalarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ekologiya fanlarini o'qitilishda o'rganilayotgan har bir mavzuni o'quvchilar chuqur tushunishlari va aytilayotgan tavsiyalarga qat'iy amal qilishlari lozim. Chunki tabiiy fanlarni o'rganish orqali inson hayotni o'rganadi, tabiatga xos bo'lgan tuzilish va xususiyatlar bilan tanishadi.

Yosh avlodning barkamol shaxs bo'lib yetishishi, o'zi va o'zgarlar sog'lig'ini muhofaza qilishga chorlash maqsadida ta'lim dargohlari tizimi tomonidan sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Dunyoda hech narsa inson va uning salomatligi bilan tenglasha olmaydi. Shuning uchun ham tabiiy bilimlar g'oyat kerakli bo'lib, insoniyatning kelajagi uchun xizmat qiladi.

Shuning uchun ham tabiiy fanlarni o'qiyotgan har bir o'quvchi mazkur bilimlar bilan puxta qurollanmog'i va hayotiy jarayonlarda mavjud bilimiga tayanib ish ko'rmog'i lozimdir. Shu maqsadda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan o'quvchilarga chuqur bilim berilmog'i, kelib chiqishi mumkin bo'lgan holatlar yuzasidan mukammal tushuncha va malaka hosil qilinmog'i lozim.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining eng so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimni barpo etish dolzarb ahamiyatga ega ekanligini inobatga olib, Oliy majlisning 1997 yil 29 avgustdagi IX sessiyasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" qabul qilinganligiga 19 yildan ortiq vaqt o'tdi.

Mana shu muddatda muhtaram Prezidentimiz I.Karimov tashabbuslari bilan qabul qilingan mazkur hujjatlar ta'lim tizimida yagona "O'zbek modeli"ni yaratilishiga asos bo'lib xizmat qildi.

To'xtovsiz o'zgarishlar bilan davom etayotgan jamiyat taraqqiyotining bugungi kunida, yuksak malakali mutaxassislar tomonidan "O'zbek modeli" asosida isloh qilinayotgan ta'lim tizimi juda yuqori baholandi. Respublikada joriy qilingan uzluksiz ta'lim tizimi ta'lim jarayonining qaysi bosqichida bo'lmasin, mukammal tarzda amalga oshirilishini taqozo qiladi. Uzluksiz ta'lim tizimining

faoliyat olib borishi davlat ta`lim standartlari, turli darajalardagi ta`lim dasturlarining izchilligi asosida ta`minlanadi.

Demak, ta`lim dargohlarida o`quvchilarning bilimli, raqobatbardosh, barkamol shaxs qilib tarbiyalashni maqsad qilib, amalda qo`llab kelinayotgan usullarni yanada takomillashtirish, ta`lim berish jarayonida zamonning eng dolzarb muammolaridan o`smirlar o`rtasida giyohvandlik, ichkilikbozlik kabi illatlarning uchrab turishi, buning natijasida sog`lom turmush tarzining buzilishi oldini olish uchun qo`llaniladigan chora-tadbirlarni muhokama qilish, o`quvchilarda sog`lom turmush tarzini tarkib toptirishga imkon beradigan o`quv materiallarini ishlab chiqish, o`quvchilar ongiga yetkazish vositalari, metodlari va shakllari ta`lim beruvchi o`qituvchi tomonidan tanlanishi lozim.

Dars mashg`ulotlarining yuqorida keltirilgan tartibda o`tilishi kadrlar tayyorlash sifatining oshishiga ta`lim mazmunini tubdan yangilanishiga zamin yaratadi. Tabiiy fanlar haqidagi bilimlar majmuasini egallagan o`quvchilar kelajagi buyuk yurtning munosib vorislari bo`lishiga shak-shubha yo`q.

1.2. EKOLOGIK TA'LIM- TARBIYA- MADANIYAT- MAFKURA - ONG TUSHUNCHALARINING TAHLILI

Jamiyatning global ijtimoiy taraqqiyoti davrida ekologik madaniyat komil insonni shakllantirishning muhim omili bo`lib, ekologik ong insonning tabiat bilan o`zaro munosabati to`g`risidagi bilimi va ishonchini o`z ichiga oladi.

Ekologik madaniyat to`g`risidagi dastlabki tushunchalar boshlang`ich sinflardan boshlanib, bundan ko`zda tutilgan asosiy maqsad yoshlar qalbida Ona vatanga muhabbat, uning go`zal tabiatiga mehr uyg`otish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish tushunchalarini shakllantirish orqali, tabiatni muhofaza qilish, ya`ni uni asrab avaylashga oid javobgarlik hissini oshirishdan iboratdir.

Ekologik tarbiyani amalga oshirishning muhim shakli o`quvchilarning o`qituvchi rahbarligida tabiat muhofazasi bo`yicha amaliy faoliyatidir. Jumladan,

daraxtlar o'tkazish, gullar ekish, ularni doimiy parvarish qilish, qushlar va hayvonlarga inlar qurish va ularga g'amxo'rlik qilish, ariqlarni tozalash, chiqindi va axlatlarni olish va hokazo. Bu ishlarning hammasi yoshlar ongini ma'naviy jihatdan boyitib, ularning yuksak fazilatli insonlar bo'lib yetishishlariga zamin tayyorlaydi. Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha aniq maqsad sari yo'naltirilgan har qanday amaliy faoliyat insonni shakllantirishda muhim omil bo'lib, yigit va qizlarning tabiatga bo'lgan munosabatlariga qarab, ularning axloqan yetukliklarini baholash mumkin.

Bolalar orasida ekologik tarbiyaning ko'ngildagidek emasligi, ularning turmush tarzida va tabiat bilan o'zaro munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, bolalar tomonidan daraxt shoxlarining sindirilishi, tanasiga turli yozuvlarning yozilishi, po'stlog'ining shilinishi, gullarning ortiqcha uzilishi va hokazolar nafaqat tabiatga, balki insonlarga ham zarar yetkazishi mumkinligini mutloq o'ylamaydilar.

O'quvchilarga ekologiya asoslaridan saboq berayotgan o'qituvchilarning o'zlari tabiatga bo'lgan munosabatlarida shogirdlariga namuna bo'lishlari kerak, ya'ni so'z bilan ish bir-biriga mos ravishda olib borilishi lozim, faqat shundagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Ekologik ta'lim- tarbiya orqali o'quvchi-yoshlarni tabiat g'o'zalliklarini sevish va ulardan estetik zavq olish ruhida tarbiyalash, tabiatning rivojlanish qonuniyatlari, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlar, shuningdek, inson faoliyatining tabiatga ta'siri oqibatlarini haqida bilim berish, ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiatni sevish, undan to'g'ri va ongli ravishda foydalana bilishni tarbiyalash, ularda tabiat oldida mas'uliyatni to'g'ri anglash malakasini hosil qiladi.

Ekologik tarbiya- axloqiy tarbiyaning ajralmas qismi bo'lib, kishilarda ekologik ong va tafakkurni hamda ekologik dunyoqarashni shakllantirishga, tabiatni dialektik tushunishga yordam beradi. Ekologik ta'lim-tarbiyani mukammal

darajada amalga oshirish uchun bu vazifaning muhimligi va mas'uliyatini yaxshi bilgan yoshlarni tarbiyalash lozim, zero ekologik madaniyat biosferani saqlab qolishning muhim omilidir.

Yoshlarga beriladigan ekologik ta'lim- tarbiyaning asl maqsadi: yoshlar ongini ma'naviy jihatdan boyitish ularda ekologik madaniyatni shakllantirish, ma'nan yetuk, tabiatga nisbatan mehr oqibatli, kelajakda vatanimiz uchun chinakam sodiq insonlar bo'lib kamol topishlariga zamin tayyorlashda ko'maklashish, shuningdek, havoning musaffoligi, suvning sifati, tuproqning tozaligi kelajak sog'lom avlod uchun kafolat ekanini ularning ongiga singdirishdan iborat.

Tabiatni muhofaza qilishga oid ta'lim berish — bu atrof muhitni muhofaza qilish masalalarini nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'qitish tizimidir. Umumiy va maxsus ekologiya asoslarini bilish har bir zamonaviy kishi uchun zarur bo'lgan madaniyat elementi hisoblanadi. Ekologik ta'lim berishdan maqsad, har bir yoshga kelajakda u qaysi sohada ishlashidan qat'i nazar, tabiat va jamiyatning o'zaro munosabatlari to'g'risidagi bilimlarni berishdir. Ekologik ta'limni shakllantirishda tabiatni muhofaza qilish, uning resurslaridan samarali foydalanish asoslarini o'zlashtirish birinchi darajali ahamiyatga ega. Buning uchun tabiatdan foydalanishda keng ommalashgan «Biz tabiatdan in'om, ehson kutib o'tira olmaymiz, balki undan undirib olamiz», «Bizning mamlakatimiz bitmas-tuganmas tabiiy boyliklarga ega va ulardan samarali foydalanishga hojat yo'q» degan oqibati o'ylanmay aytilgan mantiqsiz fikrlardan yiroq bo'lish lozim.

Ekologik savodxonlikka erishish yo'lida insonlarning ekologik bilim darajasini oshirish hamda hududlar bo'yicha atrof muhitni ifloslantiruvchi manbalar to'g'risida ma'lumotlar berish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunday ma'lumotlarga ega bo'lish, umumiy ekologik holatni ko'z oldiga keltirish, tabiat va insonlar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni cheklash va yo'qotish bo'yicha amaliy faoliyatda ishtirok etishlari uchun zarur bo'ladi.

Ekologik ta'limda dunyoqarashni ekologiyalashtirish ham muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, bunga erishishning muhim vositasi insonlarning o'z ustida ishlashlari, tabiat sirlarini o'rganishga va ekologik bilimlarini doimo oshirib borishga bo'lgan intilishlaridir.

Ekologik ta'lim berishda ekologik falokatlar sabablarini to'g'ri baholash ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, aholini ekologik savodsizligi, targ'ibot-tashviqot ishlari samarasining pastligi hamda ekologik faoliyatning sustligi turli chalkash fikrlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Ekologik tarbiya va ta'lim bir biridan ajratib bo'lmaydigan uzliksiz jarayon bo'lib, mazkur jarayon to'liq amalga oshirilsa, ular doimo o'zaro aloqada rivojlanadi va ijobiy natija beradi. Bolaning tabiatga bo'lgan insoniy munosabatlari oilada va maktablarda beriladigan ekologik tarbiya orqali shakllanadi. Oilada beriladigan ekologik tarbiya asosan ota-onalarning oiladagi o'zaro munosabatlariga bog'liq bo'lib, oilalarning har bir a'zosi ona tabiat va tabiiy muhitni saqlash masalasiga o'zicha yondashadilar.

Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiatga bo'lgan ijobiy munosabatni uyg'otish, uni asrashga oid amaliy ko'nikmalarni hosil qilish, bolalarga tarbiya beruvchi mutaxassislarning ekologik ongi va madaniyatining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir.

Ta'lim muassasalari va oilalar bolalarda tabiatga nisbatan noyob moddiy boyliklar manbai sifatida qarash va uni asrab avaylash tuyg'usini shakllantiruvchi asosiy vosita bo'lib, ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlar bo'yicha dasturlar va o'quv rejalarda tarbiya va ta'limning ekologik aspektlarini yanada rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarga ekologik tarbiya berishda yoki ekologiya fanini o'qitishda o'qituvchilar tabiat mujizalari, uning ajoyib gushalari, hayvonot va o'simliklar dunyosi va hashoratlar hayotining o'ziga xos jihatlarini jonli va qiziqarli qilib yozilgan jahon va milliy adabiyotimiz namoyondalari

asarlari, mavzuga oid o'quv filmlaridan foydalanishga ko'proq e'tibor berishlari lozim. Shuningdek maktablarda kimyo, biologiya, zoologiya, odam anatomiyasi kabi fan o'qituvchilari o'quvchilarga ushbu fanlardan bilim berishda o'z fanlarini ekologik nuqtai nazardan talqin qilib, fanlar bo'yicha umumiy xulosalar chiqarishda, tabiatda kechadigan voqea va hodisalar mohiyatini ochib berishlari muhimdir. Bu hol o'quvchilarni ekologiya fani vazifalarini yanada yaxshi tushunib olishda yordam beradi. Zero, yosh avlodni tabiatga nisbatan mehr-muxabbat ruhida tarbiyalash oila va maktabning eng muhim vazifalaridan biridir. Chunki insoniy komillik aynan shu muhitda shakllanib, bu maqsadlarga erishish uchun ta'lim muassasalarida tabiat va umuman tirik jonzorlar to'g'risida chop etilgan adabiyotlar sonini ko'paytirish, shoir va yozuvchilar tomonidan maktab yoshidagi bolalar uchun ko'plab asarlar yaratish muhim ahamiyatga egadir.

Tabiatdagi muvozanatning buzilishiga asosiy aybdor– insonning o'zi. Tabiat boyliklaridan oqilona foydalana olmagan, ochofatlik qilgan, tabiatga qo'pol va takabburlarcha munosabatdabo'lgani uchun inson aybdor. Keyingi yillarda, o'tgan asrda inson tabiatga mehrini emas, balki mehrsizligini ko'rsatdi.

Tabiatni e'zozlash, xastalanishiga yo'l qo'ymaslik, muhofaza qilish uchun odamlarni tabiatga muhabbat va dardkashlik ruhida tarbiyalash lozim. Ko'p narsa ta'lim-tarbiyaga, insonga qanday ta'lim-tarbiya byerilganligiga bog'liq. Agarki inson go'daklik paytidan boshlab shox-shabballarni, g'uj-g'uj hosil qilib turgan mevali daraxt novdalarini sindirish. Ko'chatlarni majruh qilish, parrandalarni o'ldirish, jonli narsalarni bejon qilish tabiat uchun ham, inson va jamiyat uchun ham o'ta zararli ekanligini chuqur his etgan bo'lsa, uning ahamiyati nihoyatda katta bo'ladi.

Ekologik ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri har bir inson ongiga tabiatga mehr-muhabbatni shakllantirish, inson tabiatsiz, tabiiy boyliklarsiz yashay olmasligini singdirishdan iboratdir. Har bir inson yoshi, jinsi, millati, e'tiqodi, mansabi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, inson tabiat ustidan zo'ravonlik qilishni to'xtatmasa, endilikda tabiat bizdan shafqatsizlarcha o'ch olishini,

tsivilizatsiya yutuqlarini bir lahzada yo'q qilib tashlashi hech gap emasligini, erishgan yutuqlarimizga ortiqcha mahliyo bo'lib ketish o'ta zarali ekanligini aslo esdan chiqarmaslik kerak.

Ekologik ta'lim va tarbiya to'g'risidagi dastlabki oddiy tushunchalar oilada boshlanib, Yoshlar qalbida Ona vatanga muhabbat, uning go'zal tabiatiga mehr uyg'otish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, ya'ni uni avaylab asrashga har bir o'quvchida javobgarlik hissini oshirishdan iboratdir.

Umumta'lim maktablarida ekologik ta'lim tabiat muhofazasi masalalarini chuqur va har tomonlama o'rganishga, inson faoliyati natijasida biosfyerada ro'y beradigan hodisalarning sabab va qonuniyatlarini tahlil qilish maqsadlariga qaratilgan.

Ekologik tarbiyaning muhim ahamiyati o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida tabiat muhofazasi bo'yicha amaliy faoliyatlari, ya'ni daraxtlar o'tkazish, gullar ekish, ularni doimiy parvarish qilish, qushlar va hayvonlarga in qurish va ularga g'amxo'rlik qilish, ariqlarni va hududlarni tozalash; chiqindilar va axlatlarni olish va hokazo. Bu ishlarning hammasi Yoshlar ongini ma'naviy jihatdan boyitib, ularni yuksak fazilatli insonlar bo'lib etishishlarida zamin tayyorlaydi.

Ekologik tarbiya olgan kishi hech qachon tabiatgaozor etkazmaydi, boyliklaridan oqilona foydalanadi, uni yanadako'rkam, go'zal bo'lishiga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

O'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya byerayotgan o'qituvchilarning o'zlari tabiatgabo'lgan munosabatlarida o'quvchilarga namuna bo'lishlari kerak, ana shunda kutilgan natijaga erishish mumkin bo'ladi.

O'quvchilarda ekologik bilimni tarbiyalash, tabiatni sevish, undan to'g'ri vaongli ravishda foydalana bilishni tarbiyalash ekologik tarbiya va madaniyatning asosi bo'lib, kishilarda tabiat oldida masuliyatni anglash malakasini hosil qiladi.

Vatanni sevish, vatanparvarlik tabiatni sevishdan boshlanadi. Binobarin, o'quvchilarda tabiatga nisbatan haqiqiy muxabbat tuyg'usini hosil qilmay turib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin emas. Insonning tabiat quchog'ida bo'lishi uni ruhan tetiklashtirib, mehnat qobiliyatini vaajodiy faoliyatini oshiradi.

Farzandlarimizning ekologik ta'lim-tarbiyasi bilan juda erta, ularning yoshlik chog'laridan boshlab shug'ullanishimiz lozim. Uning poydevorini oilada yaratib, bog'cha, maktab vaoliy o'quv yurtlarida maqsad sari izchil yo'naltirish lozim. Faqat shundagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Tabiatni muhofaza qilish va ekologik tarbiya masalasi pedagogik va psixologik masalalarning eng muhim tarkibiy qismidir. Kishilarda tabiat qonunlariga to'la rioya etish va bu sohada Vatan, xalq, davlat va klajak avlod oldidagi burch tuyg'usi va mas'uliyat hissi hosil qilinmasa, ularda to'la ekologik ong va tafakkur hosil bo'lmaydi. Ekologik ong va tafakkurga egabo'lgan har bir kishi o'z mehnat faoliyatida tabiatga ta'sir etish qanday oqibatlargalib kelishi mumkinligini oldindan ko'rib, ongli ravishda ish tutadi.

Yoshlarga beriladigan ekologik ta'lim-tarbiyaning asl maqsadi yoshlar ongini ma'naviy jihatdan boyitib, ularda ekologik madaniyatni shakllantirish va yaxshi fazilatli koil insonlar bo'lib etishishlarida zamin tayyorlashdako'maklashish, shuningdek, havoning musaffoligi, suvning sifati, tuproqning tozaligi kelajak sog'lom avlod uchun kafolat ekanini ularning ongiga singdirishdan iborat.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, ta'lim bo'yichaxalqaro hamkorlik uchun ham keng yo'l ochildi. Bugungi kundaXalq ta'limi vazirligi, AQSH, Angliya, Germaniya, Frantsiya, Yaponiya, Gollandiya, Turkiya, Koreya, Shvetsariya va boshqa davlatlar hamda YUNESKO, BMT kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlarning mamlakatimizdagi elchixonalari va ko'plab nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilmoqda.

1.3.EKOLOGIK TARBIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH MASALALARI

Ekologik tarbiya masalalari deyilganda, avvalo tabiatga mehr bilan munosabatda bo'lish tushunilib, ekologik madaniyatni o'sib kelayotgan yoshlarda shakllantirish globallashuv davrining eng asosiy muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Aslida ekologik dunyoqarash tabiatni muhofaza qilish haqidagi ilmiy-nazariy bilimlar majmuasi, hukmron iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy qarashlarni va oddiy kundalik tasavvurlarni o'z ichiga oladi.

Ekologik dunyoqarash-madaniyat insoniyatning tarixiy rivojlanish jarayonida vujudga kelgan ilmiy-nazariy g'oyalarning muayyan majmuasi bo'lmasdan, jamiyatda yashayotgan shaxslarning ruhiy holatlarini, hissiyotlari kayfiyatlari va intilishlarini ham o'z ichiga oladi, hamda turli ijtimoiy ong shakllarining ekologiya nuqtayi nazaridan baholanishini mushtaraklashuvini ifodalaydi. Umumiy dunyoqarashning tarkibiy qismi bo'lgan ekologik madaniyat keng va tor ma'nolarda insoniyatning ijtimoiy-tarixiy amaliyoti jarayonida, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmuasidir. Tor ma'noda esa kishilarning amaliy va nazariy faoliyati tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi madaniyati deb qarsh mumkin.

Insoniyatning atrof-muhitga munosabati, madaniyatini faylasuflar shartli ravishda moddiy va ma'naviy madaniyat yo'nalishlarga ajratadilar.

Insonning moddiy va ma'naviy madaniyati o'rtasidagi dialektik bog'lanish va aloqadorlik tarixiy taraqqiyotning harakatlanuvchi kuchlaridan biridir. Umuman olganda moddiy va ma'naviy madaniyatlarning nisbatan mustaqil majmualari hamma tarixiy rivojlanish bosqichlarida tabiatni muhofaza qilish ehtiyoji ziddiyatli bo'lib kelgan. Aynan shu ziddiyatning kuchayishi ekologik vaziyatni keskinlashtirib olamshumul muammoga yalantirgani sir emas.

Ekologik vaziyatni xolisona baholash rejali boshqarish va oqilona tashkil qilish uchun birinchidan ekologik madaniyatning moddiy hamda ma'naviy

yo'nalishlari ya'ni ekologik madaniyatni muayyan tarzda namoyan qiladigan faoliyat doiralari o'zaro bog'liq holda rivojlanishi zarur. Ikkinchidan ekologik vaziyat haqidagi ta'rifga ega bo'lishning o'zi "Tabiat jamiyat inson" munosabatlarini muqobillashtirish uchun yetarli emas. Uchinchidan tabiat muhofazasida amaliy va nazariy tadbirlarning muvaffaqiyatini belgilovchi eng muhim sabablar ekologik madaniyat majmuasi bo'lib u yuqorida qayd etilgan faoliyatlarning asosi hisoblanadi.

Moddiy ishlab chiqarish o'z mohiyatiga ko'ra ekologik madaniyatdir. Bu faoliyatda tabiiy boyliklarni oqilona iste'mol qilish madaniyatini rivojlantirish oddiy jarayon emas, aksincha ommaning amaliy tashabbuskorligi g'oyaviy-siyosiy ongliigiga amaliy tashabbuskorligiga bog'liq. Bunda ekologik ta'lim-tarbiyaning vazifasi muayyan ekologik vaziyat har bir kishining tabiatiga shaxsiy munosabatiga muvofiq ekanligini anglatishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Tabiat qonunlarini, biosferaning ichki murakkab bog'lanishlarini, jamiyatning tabiatga ta'sir qilish istiqbollari anglamay turib tabiatni muhofaza qilishga oid zarur amaliy tadbirlarni, undan foydalanishning maqbul yo'llarini belgilab bo'lmaydi. Shu munosabat bilan ekologik madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyaning yangi sifat darajasiga ko'tarish, nazariy tadqiqotlarni amaliy tadbirlardan ildamroq rivojlantirishni taqozo etadi.

Tabiatni muhofaza qilish bilan moddiy ishlab chiqarishni doimiy kengaytirish o'rtasidagi ziddiyatning uzluksiz kuchayishi bir tomondan ma'lum darajada ekologik madaniyatsizlik oqibatida vujudga kelgan texnologik qoloqlikga borib taqaladi. Ikkinchi tomondan bir zumlik iqtisodiy foyda ketidan quvish tor doiradagi mahalliy manfaatlarini ustun qo'yish natijasida mavjud ekologik texnologiyani joriy qilmaslikning sababi ham ekologik madaniyatsizlik va ma'suliyatsizlikdir.


Ekologik merosga ongli ravishda munosabatda bo'lish shaxsning ma'naviy jihatdan o'z-o'zini anglashi va ifodalashi usulidir. O'zida tabiatga, uning

tarixiga nisbatan estetik axloqiy munosabatni tarbiyalay olmagan inson faqat tabiat uchun emas, balki jamiyat uchun ham, foydasi kamdir. Shu nuqtai nazar ham ekologik moddiy va ma'naviy merosni rivojlantirish ijtimoiy tarbiya manfaataiga bo'ysundirilgan.

Tabiat muhofazasiga doir yangi an'analarni turmushga keng joriy etish ekologik vaziyatning tarkibiy qismiga, amaliy yo'nalishiga aylanishi mumkin. Bunday an'analar yoshlarning ekologik madaniyatini, vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishga nazariy bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi. Shuning uchun ham turli qarorlarga tabiat, atrof-muhitni muhofaza qilishdagi sustkashliklar muvaffaqiyatlarimizni boy berib qo'yayotganligimiz haqli ravishda tashvishli hodisa sifatida e'tirof etilmoqda. Bu sohadagi ma'muriy buyruqbozlikning salbiy oqibatlari keskin tanqid mavzui bo'lib qolmoqda.

Odamsot ruhiyati o'zini o'rab turgan tabiatdan quvvat oladi. Inson ma'naviyati buyuk tabiatdir. O'simliklar ham, toshlar ham, daryo-yu tog'lar ham inson ruhiyatini shakllantrishda, unda go'zallik tuyg'usini paydo etishda o'z o'rniga ega. Ular inqirozga yuz tutar ekan ularga bog'liq inson ruhiyatidagi xususiyatlar ham yemirilib boradi.

Hozirgi kunda jamiyatimizdagi mavjud qiyinchiliklarning ayrim ildizlari aynan ekologik inqiroz bilan bog'lanib ketgan. Sof havo, tiniq suv, musaffo osmon, sog'lom zamin bo'lmasa insonlarning bir-biriga muruvvati, samimiyati umuman odamgarchiligi haqida gap bo'lishi mumkin emas. Insonga ong tabiatni xo'rlash, zo'rlik bilan vayron qilish uchun emas, balki uning qo'ynida mehribon Ona bag'rida farzandlik burchini ado qilish uchun berilgan.



Oʻquvchilarni ekologik tarbiyalash kompleks tadbirlari ichida darslarda ekologik tanaffus uslubi muhim pedagogik va psixologik ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonida ekologik tanaffus, bu ijobiy hayajonlarga boy, qisqa hamda chuqur va izchil dam olishni taʼminlashi bilan birga oʻziga xos ekologik tarbiyalash usuli hamdir. Eng muhimi bu pedagogik texnologiyani qoʻllaganda alohida dars jadvali va vaqt, yoki maxsus xona talab qilinmaydi. Bundan tashqari bu uslub oʻqituvchidan har bir maʼruza yoki boshqa tipdagi dars uchun tanaffus turini

tanlashda yuksak mahorat, bilim talab qilib, o'z ustida ko'proq ishlashga undashi bilan uning pedagogik mahoratini rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Buyuk faylasuflar aytganidek kishilarning ijtimoiy borliqlari ularning ijtimoiy ongini belgilab beradi. Jamiyat rivojlanishida ekologik ong, ekologik tafakkur va ekologik odob katta o'rin tutadi. Gegelning aytishicha ekologik tafakkur kishilar uchun birinchi navbatda tushunish kerak bo'lgan omildir.

Ekologik tafakkursiz yer sharida ilmiy-texnika rivojlanishini amalga oshirish kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Buning ma'nosi fan-texnikani rivojlantirmaslik yoki kosmosni egallamslik emas, balki bunday ishlarni amalga oshirishda birinchi navbatda insonlarda ekologik tafakkur juda rivojlangan bo'lishi kerak, inson bundan buyon ham hozirgi davrdagibidek xo'jasizlikka va atrof- muhit ahvoliga befarq bo'lmasligi kerak.

Tabiat manbalaridan noo'rin foydalanish, isrofgarchilik hisobiga ishlab chiqarishni ko'paytirish, qurollanishni rivojlantirish, boylik orttirish va shon-sharaf orqasidan quvish o'rniga undan nooqilona foydalanishni to'xtatish, juda bo'lmaganda bu jarayonni sekinlashtirish, insonlar uchun umumiy bo'lgan zaminning kelajagini o'ylash, uni doimo ko'z qorachig'idek asrash barchamizning burchimizdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy tarqqiyotning turli bosqichlarida insoniyat tabiiy atrof-muhitga turlicha munosabatda bo'lib kelgan. Dastlab inson paydo bo'lib tabiatga mutlaqo qaram bo'lgan davrda uning yashash uchun kurash bilan bog'liq iqtisodiy manfaatalri tabiatni muhofaza qilishga nisbatan birinchi o'rinda turgan. Keyinchalik ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurolarining takomillashuvi bilan insonning tabiat ustidan hukmronligi kuchayib borgan. Natijada "Jamiyat tabiat majmuasi o'rtasidagi mutonisiblik buzilib tabiatni muhofaza qilish orqali insonning o'zi muhofaza qilish zaruriyati vujudga keldi". Bu ayni zaruriyat o'z novbatida ayni shu masalani hal qilishning nazariy yo'nalishlarini mukammallashtirishni taqozo qildi.

Ijtimoiy ekologik ong insoniyatning ijtimoiy, tarixiy amaliyoti jarayonida atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ma'naviy qadriyatlar majmuasidir. O'ziga xos ekologik ongni kishilarning muayyan amaliy va nazariy faoliyat maqsadini tabiatni muhofaza qilish manfaatlari bilan bog'lanishning inikosi deb qarash mumkin.

Tabiatni muhofaza qilish maqsadlaridan kelib chiqqan ehtiyojlar va ularni ifodalaydigan manfaatlar umumiy bo'lib, ularni asosiy va asosiy bo'lmagan turlarga ajratish nisbiydir. Asosiy va asosiy bo'lmagan ehtiyojlarning tabiati faoliyat doirasi tabiat muhofazasining mahalliy, milliy ehtiyojlari chuqurlashib jahon miqyosidagi jahon ehtiyojlarga aylanib ketishining ehtimolligi juda katta. Bunga ekologiya tarixidan istalgancha misollarni keltirish qiyin emas.

Atrof-muhitni muhofaza qilish ehtiyojlari mazmuniga ko'ra moddiy va ma'naviy ehtiyojlarga ajralgan. Moddiy ekologik ehtiyojlar tiklanmaydigan tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish, tiklanadigan tabiiy boyliklarning ekologik muvozanatini saqlash kabilarni boshqarish va tashkil qilishning asosidir.

Tabiiy boyliklarning bitmas – tuganmasligi haqidagi mavjud fikrlarning asossizligi nazariy hamda amaliy jihatdan isbotlanadi. Shuing uchun ham hozirgi vaqtda iqtisodiy ehtiyojlarni ekologik moddiy ehtiyojlar doirasida chegaralash zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Insonning umumiy ehtiyojlarini, imkoniyatlarini amalga oshirish uchun qilgan harakatlar ongli faoliyatidir. Insoniyat ertaga ham faqat qorni to'q. usti but bo'lishi uchun tabiatni muhofaza qilishga intilmaydi. Zero tabiat insonning yashashi uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar manbai bo'lib qolmasdan, balki ma'naviy hayotning asosiga bog'liq holda mavjud bo'lgan. Ikkinchi tomondan tabiatni muhofaza qilishning ma'naviy ehtiyojlari iqtisodiy munosabatlarining ekologik jihatlarini rivojlantirib, boshqarib va muqabillashtirib turishning omili hisoblanadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, atrof-muhit muhofazasiga doir yetarli bilimga ega bo'lgan shaxsning ekologik sifatlarini tezda shakllantirib bo'lmaydi.

Buning uchun ekologik bilimlar majmuasi bo'lgan madaniyat va qadriyatlar jamiyatning umumiy manfaatlari bilan bog'lanib hayotiy ehtiyojlarga aylansagina kutilgan natija berishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan bo'lib, mazkur qonun 11 bo'lim, 53 moddadan iborat. U tabiiy muhit sharoitlarini saqlashning, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab beradi, unda tabiatni huquqiy muhofazalash, muhofaza qilish obyektlari, Oliy Majlisining tabiatni muhofazasiga oid huquqiy munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari, Vazirlar Mahkamasi, davlat hokimiyati va boshqaruv mahalliy idoralarning Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ushbu sohadagi vakolatlari keng ko'rsatib berilgan.

Mazkur qonunga asosan Respublika aholisining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi huquq va majburiyatlari, yer, suv, yer osti boyliklari, havo, o'rmon, hauvonot va o'simliklar dunyosi va ulardan foydalanish mohiyati aniq bayon etilgan. Ekologik tahlil, uning maqsadi hamda vazifalari, obyektlari va uni o'tkazishning ahamiyati haqida ham to'xtalib o'tilgan. Ekologik nazorat, davlat nazorat tizimi va uning olib borilishi, tabiatdan foydalanganlik uchun haq to'lash, tabiatni muhofaza qilish jamg'armalari, ekologik sug'urta, tabiatni muhofaza qilishni rag'batlantirish, ekologik guvohnomalar va ularning ahamiyati hamda boshqa bir qator muammolar o'rta tashlangan.

Shuning bilan birga, tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun va talablarni buzganlik uchun javobgarlik masalalarini ham yangi qonunlar asosida kitobxonga tushuntirib berishga harakat qilingan.

O'zbekiston hududida katta-katta yer maydonlari qishloq xo'jaligi uchun o'zlashtirilib, Qizilqum, Mirzacho'l, Yozyovon cho'li, Dalvarzin dashti, Sherobod va Qarshi dashtlarida vohalar maydonining tobora ortib borganligi, ko'plab zavod va fabrikalar qurilib, kanallar o'tkazilganligi, seraholi yangi shahar hamda shaharchalar bunyod etilganligi, transport va qishloq xo'jaligining texnika bilan

ta'minlanishi, qishloq xo'jaligini ximiyalashtirishning jadal o'sishi tabiat va atrof muhitning buzilishiga olib keldi. Atrof muhitning ekologik holatidagi bunday noxushliklar endi ularga befarq qarash mumkin emasligini ko'rsatdi.

Qonunning maqsad inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar uyg'un muvozanatda rivojlanishini, ekologiya tizimlari, tabiat komplekslari va ayrim obyektlar muhofaza qilinishini ta'minlashdan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini kafolatlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlar ushbu Qonun bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining yer, suv, o'rmon, yer osti boyliklari to'g'risidagi, atmosfera havosini, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish to'g'risidagi qonunlarni yoxud boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Tabiatni muhofaza qilishdan maqsad qonunning 3-moddasida o'z aksini topgan bo'lib, unda shunday deyiladi:

- inson salomatligi, ekologik muvozanatni saqlash, respublikani samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- jonli tabiatning turlari va genetik fondi boyligini saqlab qolish;
- ekologiya tizimlari, landshaftlar va noyob tabiat obyektlari xilma-xilligini saqlab qolish;
- ekologik xavfsizligini ta'minlash;
- tabiatobyektlaribilanbog'liqmadaniymerosniasrabqolishdir.

II-BOB.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA MAVJUD BO'LGAN EKOLOGIK MUAMMOLARNING HAL ETISH STRATEGIYASI

2.1.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TABIATINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

O'zbekiston Respublikasi hududi katta Qoraqum hamda Qizilqum sahrolari va baland tog' tizimlari bilan ajralib turadigan berk havzada joylashganligidir.Respublika hududi 448,9 ming kvadrat kilometrdan iborat bo'lib,hududning beshdan to'rt qismi tekislikdan, qolgan qismi esa to'g'li zonalardan iboratdir.Respublika hududining eng yuqori qismi Hisor tog' tizmasidagi dengiz sathidan 4688 metr balandda bo'lgan Hazrati Sulton chuqqisi bo'lsa,eng past qismi esa dengiz sathidan past bo'lgan, suv oqmaydigan hududlar hisoblanadi.

O'zbekiston hududi o'zining geologik taraqqiyoti mobaynida murakkab jarayonlarni boshidan keshirgan. Shuning uchun uning relyefi juda xilma-xildir.

Respublikaning sharqiy va janubi-sharqiy qismini O'rta Osiyoning eng baland tog'lari Tyanshan va Pomir-Oloy tizmalarining tarmoqlari qoplab olgan. Bu toglar g'arb va shimoli-g'arb-tomon pasayib boradi, sharq va janubi-sharqda esa ularning balandligi dengiz sathidan 7495 m ga etadi.

O'zbekistonning shimoli-g'arbiy qismi esa Turon tekisligining markaziy qismi bilan band. Shunday qilib, O'zbekiston hududi yer usti tuzilishi jihatidan ikkita katta qismga, ya'ni tog'li va tekisliklarga bo'linadi. Bu qismlar o'z maydonlarining katta-kishikligi bilan bir-biridan keskin farq qiladi. O'zbekiston hududining 70% ga yaqini tekislik, qolgan 30% qismini esa tog'lar egallaydi. Bu qismlarning chegaralari nihoyatda egri-bugri bo'lib, tog'larning ba'zi bir tizmalari tekislik qismining ishkarisiga surilib kirgan, ayrim joylarda tekislik ham tog' tizmalari orasiga qo'ltiq shaklida kirib qolgan.

O'zbekiston asosan tog' tizmalari va tog' oraliq botiqlaridan iborat, uning shimoli-sharqiy qismida G'arbiy Tyanshanning tog' tizmalari joylashgan. Talas Olatovi G'arbiy Tyanshanning baland tog'laridan biri bo'lib, uning eng baland sho'qqisi, dengiz sathidan 4488 m balandlikka ko'tarilgan va Manas nomini olgan. Bu tizma chuqur daryo vodiylari va tog' oraliq botiqlarini bir-biridan ajratib turadi.

G'arbiy Tyanshanning shimoliy tizmalaridan biri Ugom tog'lari deb atalib, bu tog'ining janubi-sharqiy yonbag'irlari O'zbekiston Respublikasiga qaraydi. Ugom tog'ining dengiz sathidan o'rtasha balandligi 3500 m, eng baland sho'qqisi esa 4229 m ga (Sayram sho'qqisi) etadi. Ugom tog'i janubi-g'arb tomonga asta-sekin pasayib boradi. Ugom tog'ining janubi-g'arb qismida Qorjontog' tizmasi joylashgan. Uning o'rtasha balandligi 2000 m, eng baland cho'qqisi (Mingbuloq) 2834 m ga etadi.

Ugom tog'iga yondosh holda Piskom tog' tizmasi cho'zilgan. Piskom tizma tog'ining dengiz sathidan o'rtasha balandligi 3000— 3500 m, eng baland cho'qqisi 4299 m ga etadi. Uning baland qismida doimiy qor va muzliklar tarqalgan.

G'arbiy Tyanshanning eng uzun va baland tog' tizmalaridan biri Chotqoldir. Chotqol tog' tizmasini O'zbekiston hududida Ohangaron daryo vodiysi ikkiga bo'lgan. Bularning shimoliysi Arashon va Qizilnura, janubiysi esa Qurama tizma tog'lari deb ataladi.

Arashon va Qizilnura tog' tizmalari Ohangaron va Chotqol daryolarining suv ayirg'ishi hisoblanadi. Bu tizmalarning eng baland sho'qqisi dengiz sathidan 3893 m ga ko'tarilgan. Qizilnura tizmasining shimoliy qismida Katta va Kishik Shimyon sho'qqilari joylashgan. Ular dengiz sathidan 3277 va 2101 m balanddir.

Qurama tizma tog'ining o'rtasha balandligi 2500 m bo'lib, ayrim sho'qqilari 3769 m gasha etadi. Bu tizmaning janubi-g'arbida unsha baland

bo'lmagan Mug'ultog' joylashgan. Ohangaron daryosining boshlanish qismida Ohangaron platosi joylashgan. Ohangaron platosining o'rtasha balandligi dengiz sathidan 3000 m ay-rim joylari 3400 m ga ham ko'tarilgan.

O'zbekiston hududida sharqdan g'arbga sho'zilgan Turkiston tizma tog'ining g'arbiy tarmog'i va shimoliy yonbag'irlarining aksar qismi joylashgan. Bu tizmaning O'zbekiston hududidagi eng baland cho'qqisi SHakartog' bo'lib, uning balandligi 4033 m ga etadi Tizma g'arb tomon pasaya boradi. Sangzor daryosining boshlanish qismida Turkiston tizmasi ikkiga bo'lingan.

Molg'uzor tizmasining shimoli-g'arbiy davomi — Nurota tog'ini Sangzor daryosida hosil bo'lgan «Temurlang darvozasi» ajratib turadi. Nurota unsha baland bo'lmagan ikkita tizmadan iborat. Buning shimoliysi Nurota tog' tizmasi deb atalib, uning balandligi 2169 metrgacha ko'tariladi («Hayot cho'qqisi»).

Nurota tog'ining janubiy tizmasi bir neshta balandliklardan — G'ubduntog', Qaroqshitog', Oqtog' va Qoratog'lardan iborat. Bularning balandligi 1150—2006 metr o'rtasida bo'lib, shimoliy Nurota tog'ining janubiy yon bag'irlaridan boshlanadigan daryo vodiylari ularni bir-biridan ajratib turadi.


Turkiston tizma tog'larining janubdagi Zarafshon tizma tog'larining g'arbiy tarmoqlari Shaqilqalon va Qoratepa nomlari bilan ma'lum.

O'rta Osiyoning eng baland tog'lari Tyanshan va Pomir Oloy tizmalarining tarmoqlari O'zbekistonning sharqiy va Janubi – sharqiy qismini qoplab olgan. Bu tog'lar g'arb va shimoli g'arb tomon pasaiyb boradi, sharq va janubi-sharqda esa ularning balandligi dengiz sathidan 7495 m ga etadi. O'zbekistonning 71 % i tekislik, 29 % i tog'lardan iborat.

O'zbekistonda eng katta tog' oralig' botig'lari Toshkent – Mirzacho'l , Farg'ona, Sangzor – Nurota, Kitob - Shahrizabz botig'lari.

O'zbekistonning tekislik qismi relyefi. Qizilqum cho'l i qoldig' tog'lar va berk botig'lardan iborat Sulton Uvays 485m, Tomditog' 922 m, Quljuqtog' 874 m, Ovminzatog' 639 m, Aristontog' 693 m, Bo'kantog' 764 m, berk botig'lardan Oyoqog'itma, Qoraxotin, Mingbuloq.

O'zbekistonning shimoli – g'arbiy qismida, Amudaryo etaklarida



Amudaryodel'tasi joylashgan. Qarshi cho'l i, Zarafshon vodiysidagi Qarnab va Malik, Jom cho'l lari tekislik qismining asosiy relyef shakllari hisoblanadi.

O'zbekistonning georografik chizmasi.

O'zbekiston kontinental iqlimga ega, uzoq davom etadigan jazirama issiq va quruq yoz bilan tavsiflanadi. O'zbekistonning iqlimi, geografik o'rni va quyosh energiyasi, atmosfera sirkulyasiyasi, relyefi, yer yuzasining holati kishilar xo'jalik faoliyatining ta'siri natijasida o'zgarib turadi. O'zbekistonda yozda (iyun—avgust oylarida) Quyosh nur sochib turadigan davri, nur sochishi mumkin bo'lgan davrning 84—95% ni, qishda (dekabr—fevral) esa 40—50% ni tashkil etadi.

O'zbekistonning tog'li qismida quyoshning nur sochib turish davri tekislikka nisbatan 600—700 soat kam bo'ladi: tog'larning 2000 m balandlik qismida quyosh yiliga o'rtacha 2300—2500 soat nur sochib turadi. Buning asosiy sababi tog' yonbag'ri bo'ylab ko'tarilgan sari bulutli kunlarning ortib borishidir.

O'zbekistonda quyosh ufqdan baland bo'lganligi, bulutsiz kunlarning ko'pligi (Toshkentda bir yilda 90 kun, Termizda esa 57 kun bulutli bo'ladi) oqibatida, quyosh uzoq vaqt nur sochib turganligi tufayli uning hududiga ko'p yoruqlik energiyasi tushadi. Respublikamiz shimoliy qismida har sm^2 yuzaga yiliga 136—140 kilokaloriya issiqlik, janubiy qismiga 160 kilokaloriya issiqlik tushadi. Yalpi quyosh energiyasining miqdori yil bo'yi notekis taqsimlangan bo'lib, eng ko'p quyosh energiyasi yoz oylariga to'g'ri keladi. Hatto O'zbekistonning janubida iyulda energiyasibalansi $20 \text{ kkal}/\text{sm}^2$ ga etadi. Bunga sabab yozda quyosh ufqdan balandda turib, uzoq vaqt yoritib, isitib turishidir. Aksinsha, qishda quyosh nuri yotiq tushadi, bulutli kunlar ko'p bo'lganligidan kam yoritadi, qor koplaminin mavjudligi tufayli al'bedo katta bo'ladi. Natijada qishda, xususan yanvarda yalpi energiya miqdori O'zbekistonning markaziy va janubiy qismida musbat bo'lib, bir sm^2 yuzaga 0,1—1,0 kkal.ni tashkil etadi. Lekin respublikaimizning eng shimoli-g'arbiy qismida (Ustyurtda) ba'zi yillarda qishda energiya balansi manfiy bo'lishi mumkin.

O'zbekiston iqlimining vujudga kelishida atmosfera sirkulyasiyasining (havo massalarining almashinib turishi) ham ahamiyati katta. Respublika hududiga yil davomida quyidagi asosiy havo massalari ta'sir etib turadi: Arktika, qutbiy va tropik.

O'zbekiston hududida atmosfera sirkulyasiyasining o'zgarib turish xususiyatlari qishda ko'proq arktika va mu'tadil havo massalari ta'sirida bo'lib, ular shimoli-g'arbdan, shimoldan va shimoli-sharqdan kirib keladi.

O'zbekiston qishda Sibir antisiklonidan vujudga kelgan yuqori bosimli barometrik o'qdan janubda joylashganligi tufayli, havo oshiq, lekin kechalari quruq sovuq, kunduzi esa quyosh nuri ta'sirida bir oz isiy boshlaydi, yog'in deyarli yog'maydi. Bunday ob-havo qish kunlarining 28% ni tashkil etadi. Hududga ba'zan iliq tropik havo massalari Eron-Afg'oniston tomondan kirib kelib, O'rta Osiyoning janubiy qismida mu'tadil mintaqa sovuq havosini: Eron va Afronistondan kirib kelgan iliq tropik havosidan ajratib turuvshi qutb fronti

vujudga keladi. Siklonlar o'zi bilan issiq tropik havo massasini olib kelganligi tufayli, harorat 15—20° gasha ko'tariladi, bulutlar ko'payib, yog'inlar yog'adi. Bunday ob-havo qish kunlarining 25%ni tashkil qiladi.

Yog'inlar notekis taqsimlangan, qishda Sibir antisikloni ta'sirida, yozda g'arbiy havo massalari bilan bog'liq bo'ladi. Tekisliklarda yog'inlar 80 - 120 mm, tog' oldi oraliq botiqlarda, tog'larda 300 – 550 mm. Yog'inning 30 – 35 % bahorga, 25 – 40 % qishga, 10 – 12 % kuzga, 1 – 10 % yozga to'g'ri keladi.

2.2. O'ZBEKISTON HUDUDIDAGI EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI

Ma'lum hududlarning cho'lga aylanishi deganda insonning xo'jalik faoliyati va tabiiy yo'l bilan quruq iqlimli (arid) o'lkalar ekosistemalarining izdan chiqishi, jami organik hayot shakillarining degradatsiyalashuvi va oqibat natijada bu hududlarning tabiiy iqtisodiy samaradorligini pasayishi tushuniladi.

Cho'lga aylanish masalasi hozirgi vaqtda global planetar masalalar jumlasiga kirib, atrof-muhitni muhofaza qilish muammosining tarkibiy qismidir, demak, bu jarayon muhim ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Yer kurrasining jami qurg'oqchil hududlari maydonining 69% ida cho'llanish xavfi mavjud. Jahon miqyosida yerdan noto'g'ri foydalanish natijasida har yili 6 mln.ga yaqin yer cho'llanish natijasida xo'jalik muomalasidan chiqib ketmoqda. Markaziy Osiyoda cho'llanish xavfi mavjud bo'lgan hududlar maydoni 1073,4 ming km² yoki butun qurg'oqchil mintaqa maydonining 63,35% ini tashkil etadi. Dunyo miqyosida cho'llanish muammosi insoniyat uchun katta zarar keltirmokda.

Quruqlikning 1/3 qismidan ko'prog'i qurg'oqchil hududlar hisoblanadi, bunday yerlarning maydoni so'nggi yillarda antropogen tazyiq ostida yanada kengayib bormoqda. Hozir dunyoning 628 mln. (14%) aholisi shu tufayli zarar ko'rmoqda, ya'ni yerlarni "cho'llanishi" insoniyat oldidigi umumbashariy ekologik muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Cho'llanish muammosiga bag'ishlangan konferensiya 1977-yilda Nayrobida (Kenya) bo'lib, unda 95 mamlakatdan vakillar ishtirok etdilar. Konferensiyada yerlarning «cho'llanish» muammosi keskinlashib borayotganligi, buning asosiy sababi yer resurslaridan nooqilona foydalanish ekanligidir deb e'tirof etildi. Konferensiyaning asosiy natijalari BMTning 33 (1977) sessiyasida ma'qullandi. Yerlarni cho'llashishi bilan kurashish harakatini amalga oshirish YUNEP va Atrof-muhit muhofazasi bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash zimmasiga, keyinchalik BMT ning ma'muriy muvofiqlashtiruvchi kengashiga yuklatildi.

O'zbekistonning deyarli 80% hududi cho'l va chala cho'llar mintaqasida joylashgan, quruq iqlimli, tabiati juda ham nozik, beqaror bo'lib, katta qismi qumli cho'llardan iborat va ular turli darajadagi degradatsiyaga uchragan. Cho'llanish jarayoni Qizilqum, Ustyurt platosi, Orol bo'yida, Qarshi, Qarnab, Forish cho'llarining yerlarida, tog` etaklarining prolyuvial tekisliklarida, adirlarda tarqalgan.

O'zbekistonda talay maydonlarning cho'llanishi antropogen omillar ta'siri natijasida sodir bo'lmoqda. Tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanish oqibatida ming yillardan beri barqaror bo'lib kelgan ekologik muvozanat izdan chiqmokka, binobarin tabiat komponentlari orasidagi o'zaro bog'liklik va uzluksizlik tarzida yuz beradigan o'zaro harakatga putur yetmoqda. O'simliklarning qumni tutib qoluvchi bog'liqligini izdan chiqishi oqibatida doimo harakatda bo'lib turuvchi qum uyumlari tarkib topmoqda. Buxoro, Navoiy, Xorazm vohalari chekkalaridagi o'lkan barxanlarni paydo bo'lish sababi faqat o'simlik qoplaminig yo'q qilinishidandir.

Sug`oriladigan yerlarning 50% dan ziyodroq qismi turli darajada sho'rlangan, 722 ming.ga yaqin maydonda irrigatsiya eroziyasi, 766 ming.ga yaqin maydonda defolyatsiya sodirbo'lmoqda. XX asrning 90 yillariga qadar paxta yakka hokimligi, tuproqqa ko'plab mineral o'g'itlar solinishi, pestitsidlar, gerbitsidlar, insektitsidlardan ortiqcha miqdorda foydalanish yerlarning unumsiz holga kelishini kuchaytirdi. Tuproqdagi foydali mikroorganizmlarning qirilib ketishi uni

sturukturasini yo'qolishiga va chirindi (gumus) miqdorining kamayishiga olib keladi. Bu hol paxta, sholi, don, yem-xashak ekinlaridan olinayotgan hosil miqdorining kamayishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

1995 yil 31 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi BMT ning Yer kurrasida cho'lga aylanish va qo'rg'oqchilikka qarshi kurashish Konvensiyasiga qo'shildi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qilgunga qadar tabiiy atrof-muhitni himoya qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan qonun va me'yoriy hujjatlarga sobiq ittifoq manfaatlar doirasida amal qilinar edi. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha boshqaruv va nazorat ishlari bir necha tashkilotlar vakolatiga yuklatilgan bo'lib, tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari bir tizimga birlashmagan, aksariyat hollarda bir-birlari funksiyalarini takrorlashar, kuch va mablagiardan foydalanish tarqoq holda edi. Natijada tabiatni muhofaza qilish ishlarining samaradorligi pasayib ketdi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va respublikaning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tishi munosabati bilan tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni boshqarish tizimi va uning huquqiy asoslarini kafolatlovchi qonunlar va me'yorlar ham tubdan o'zgardi.

O'zbekiston Respublikasi hududida atrof-muhit muhofazasini tashkil etish Respublika Vazirlar Mahkamasi, Respublika va viloyatlardagi tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitalari, Davlat boshqaruvining tegishli mahalliy organlari tomonidan amalga oshiriladi, Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tabiat muhofazasini tashkil etishdagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

- Tabiatni muhofaza qilishga doir yagona siyosat yuritish.
- Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni tartibga solish.
- Tabiiy resurslarni baholash va respublika ahamiyatiga molik tabiiy resurslar zaxiralarini tasdiqlash.

- Ekologik jihatdan tang vaziyatlar, tabiiy ofatlar va falokatlarning oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish.
- Tabiiy ofatlar va yirik halokatlar oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini amalga oshirish.
- Tabiiy resurslardan foydalanganlik, atrof-muhitni ifloslantirganlik, chiqindilar, zararli ta'sir etuvchi moddalarni joylashtirib tashlaganlik uchun haq to'lash tartibini, shuningdek. tabiiy resurslardan foydalanish, chiqindilarni joylashtirish, chiqindilarni joylashtirish limitlarini belgilash.
- Ekologik ta'lim-tarbiya tizimini yaratish va uning amal qilishini ta'minlash.
- Tabiatdan maxsus tartibda foydalaniladigan hududlarning chegaralarini va xo'jalik faoliyati rejimlarini tasdiqlash.
- Tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasida davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasiga bo'ysunadi hamda vazirliklar, Davlat qo'mitalari, idoralar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, shuningdek, ayrim shaxslar tomonidan yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmon, hayvonot va o'simliklar dunyosidan, atmosfera havosidan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishga doir qonunlarga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi O'zbekiston hududida faoliyat ko'rsatadigan barcha tashkilotlar ustidan ish ko'ruvchi organ bo'lib, tabiatni muhofaza qilish va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha tarmoqlararo boshqaruv va davlat nazoratini amalga oshiradi. U o'z funksiyasini mahalliy boshqaruv organlariga bog'liq bo'lmagan holda bajaradi va tabiatdan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, ishlab

chiqarish korxonalari holati va tabiiy resurslarni himoya qilish bo'yicha texnik va iqtisodiy masalalarni hal etishga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlar davlat idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi.

Yer sayyorasi va uning o'ziga xos tabiati insoniyatning umumiy yashash makoni, yagona uyi hamda yashash vositasi hisoblanadi. Shuning uchun yuz berayotgan ekologik tangliklarni bartaraf etish yer yuzidagi barcha xalqlar va davlatlarning umuminsoniy vazifasidir. Sayyoramizda Xalqaro ekologik hamkorlikning zarurligi quyidagi hollar bilan belgilanadi:

- Yer sayyorasi va uning o'ziga xos tabiatini insonga ma'lum bo'lgan olamda yagona ekanligi.
- Yer tabiati va biosfera yaxlit tizim sifatida mavjud bo'lib, inson va jamiyat uning tarkibiy qismi ekanligi.
- Insoniyatning barcha ishlab chiqarish faoliyatining moddiy negizi tabiat ekanligi.
- Tabiatdagi salbiy o'zgarishlar va atrof-muhitga antropogen ta'sir ko'lami jihatidan butun sayyoraga tazyiq ko'rsatuvchi jarayonlar ekanligi.
- Hozirda yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni hal etishga ko'p hollarda bir yoki bir nechta davlatlarning imkoniyatlari yetarli emasligi.
- Barcha insoniyatning birgalikdagi harakati sayyoramizdagi ekologik vaziyatni yaxshilashning eng maaqbul yo'li ekanligi.

2.3. TABIATNI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Mamlakatimizda tabiatni muhofaza qilishga oid barcha ishlarning zamirida huquqiy-meyyoriy hujjatlar asosiy o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi" Qonun 1996 yil 27 dekabrda qabul qilinib, u 30 tamoddan iboratdir. Mazkur qonunning 1 moddasida, "Atmosfera havosi tabiiy resurslarning tarkibiy qismi bo'lib, u umummilliy boylik hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi" deb yozib qo'yilgan bo'lib, mazkur masala gajiddiy yondoshishga millatidan qat'iy nazar barcha fuqarolar birdek mas'uldirlar.

Havoning ifloslanishi tiriklik, insoniyatning hayoti va istiqboli uchun o'ta xavfli ekanligini donishmand bobokalonlarimiz bashorat qilib o'tganlar. Ularning fikricha, ifloslangan havodan nafas oladigan inson, hayvonot va o'simliklar olami bora-bora nobud bo'ladi, yashay olmasdan qirilib ketadi.

Havoning ifloslanishi kelib chiqadigan jamiki kasalliklarning manbaidir. Hozirgi davrda mazkur masala yanada jiddiy ahamiyat kasb etib, jamiyatning eng birinchi o'rinda hal qilinishi lozim bo'lgan masalalari qatoridan joy oldi. Insoniyat o'zining ko'p ming yillik hayotiy tajribalari jarayonida sof havo, toza suv va shifobaxsh tabiatning inson salomatligi uchun nihoyatda zarur ekanligini payqab, sinab kelganlar hamda o'zlarining turli hikmatli so'zlari, maqollari va fikrlari bilan yosh avlodga o'qtirib kelganlar.

Mustaqil jamiyatda yashovchi fuqarolarning hayoti va sog'lig'i uchun qulay atmosfera havosiga ega bo'lish, uning ifloslanishiga, kamayishiga hamda fizikaviy omillarning zararli ta'sir etishiga olib keluvchi hatti-harakatlarni qilmasliklari zarurdir. Qonundan ko'zlangan maqsad:

-Respublika hududidagi atmosfera havosining tarkibiy qismini o'rganish, uni zararli ta'sirlardan himoya qilish, tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi olib borayotgan ishlarni tahliliy jihatdan ko'rib chiqish;

- Atmosfera havosiga zararli bo'lgan kimyoviy,tabiiy,biologik va boshqa xil ta'sirlar ko'rsatilishini oldini olish,sanoat ishlab chiqarishi chiqindilarini tashqi muhitga tushishini oldini olish va kamaytirish;

- Davlat organlari, tashkilotlar, muassasalar, korxonalar va jamoat birlashmalari hamda fuqarolarning atmosfera havosini muhofaza qilishdagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish ;

-Inson salomatligi uchun, ekologik muvozanatni saqlash uchun, respublikani samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manfaatlari yo'lida tabiatdan oqilona va uni ishdan chiqarmaydigan qilib foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

-Jonli tabiatning turlari va genetik fondi boyligini saqlab qolish;

-Ekologik tizimlar, landshaftlar va noyob tabiat obyektlari xilma-xilligini saqlab qolish;

-Ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari asos qilib olingan.

O'zbekiston Respublikasi “Suv va suvdan foydalanish to'g'risida”gi Qonun 1993 yilda qabul qilinib, 29 ta bob va 119 ta moddadan iboratdir.Davlat suv fondi va unga egalik qilish masalasi, qonunning 4-moddasida belgilab berilgan.Respublikadagi suv fondi:daryolar, ko'llar, suv omborlari ,boshqa yer usti suv havzalari,kanal va hovuzlarning suvlaridan hamda yer osti suvlari va muzliklardan iborat.Mazkur qonunning 5,6 moddalarida O'z.R. Oliy majlisi hamda Vazirlar Mahkamasining suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda suv xo'jaligiga oid strategik davlat dasturlarini qabul masalalari ko'riladi.

Insoniyatning asrlar davomida to'plagan tajribasiga tayanib,“Suvsiz-hayot yo'q” degan iboraning naqadar to'g'ri va haqqoniy aytilganiga shubha qilmasa ham bo'ladi.Biosfera qatlamidagi barcha tirik organizmlar suv bilan hayot kechirib, ularning suvsiz qolishi organizmlarda kechadigan hayotiy jarayonlar

uyg'unligining bo'zishiga va pirovard natijada o'limga olib keladi. Tirik organizmlarning 20 % suvsizlanishi undagi oqsil moddalarining 50%i hamda yog' moddalarining 100% I yuqolganiga qaraganda xavfliroq ekan. Suv inson tanasining 60 %ini tashkil qilib, och va suvsiz organizm , och va suv ichib yurgan organizmga qaraganda 10 marotaba kam umr ko'rar ekan. Yuqoridagilarni inobatga olib, hayotiy jarayonlarda suvning goyat katta ahamiyat kasb etadi.

Ajdodlarimiz suvni isrof qilish, iflos qilish mumkin emasligi suvsiz hayot yo'qligini dono o'gitlari orqali tushuntirib ketganlar. Suv barcha tiriklikning asosini tashkil qilib, suvsiz joyda hayotning barbod bo'lishi, taraqqiyotning tanazzulga uchrashi, aniqrog'i insoniyatning qirilib ketishini ochiq aytishimiz lozimdir va shu orqali suv havzalarini muhofaza qilish va undan samarali foydalanishni o'rganishga ozgina bo'lsa ham o'z hissamni qo'shishdir.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan bo'lib, u 14 ta bob, 91 moddadan iboratdir. Yer resurslari, ularni ekologik holati va muhofaza qilish masalalari davlat ahamiyatiga molik bo'lgan masalalardan hisoblanib, bular Davlat konstitutsiyasi va tegishli qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qo'yilgan. Yer va yer osti foydali qazilmalari umummilliy boylik hisoblanib, fuqarolar unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlari shartdir. Yurtimizda yer resurslari, tuproqning tarkibi, uni muhofaza qilish borasida bir qancha chuqur tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, sanoat korxonalarining tuproqqa chiqarayotgan chiqindilarining tabiatdagi ta'siri, tuproq tarkibi, xususiyatlari va tuproq erroziyasini keltirib chiqaruvchi omillar nisbatan kam o'rganilgan.

Respublikada yer resurslari, ularni ekologik holati va muhofaza qilish masalalari katta ahamiyatga ega ekanligini inobatga olib, bo'lg'usi biolog , ximik va ekologlarga mazkur sohadagi ishlarni amalga oshirish g'oyat muhim ekanligi, ona zamindagi barcha boyliklarni bus-butun holatda keyingi avlodlarga ham etkazishimiz lozimligi, yerdagi ekologik muvozanatning barqarorligi barcha tiriklik uchun hayotbaxsh manba ekanligini ekologik ta'lim va tarbiya ishlari

orqali yetkazishni maqsad qilib qo'ydim. Mazkur yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirish barchaning fuqarolik burchidir.

Qonunda litosfera qatlami, yer maydonlarining umumiy tavsifnomasi, yer fondi va uning toifalari, respublika yer resurslarini ekologik holati uni muhofaza qilish masalalari, yer osti boyliklari muhofazasida davlat boshqaruvi yoritib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan. Respublikada o'simliklar dunyosini huquqiy muhofaza qilish va undan foydalanishning huquqiy tartibi bilan tartibga solingan. Jumladan "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonun tabiiy sharoitda o'sadigan o'simlik dunyosini, shuningdek, takror yetishtirish va genetik fondini saqlash uchun ekib o'stiriladigan yovvoyi o'simliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

O'rmonlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlar o'rmonlar to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Agar O'zbekiston Respublikasining Xalqaro shartnomasida "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonun hujjatlaridagidan boshqacha qoidalari qo'llaniladi.

O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Floraning tur bo'yicha tarkibini va genetik fondini tabiiy sharoitlarda saqlab qolish;
- Tabiiy o'simlik jamoalarining va yovvoyi o'simliklar o'sadigan muhitning bir butunligini saqlab qolish;

- O'simlik dunyosidan oqilona foydalanishni va uni takror yetishtirishni ta'minlash;
- Yuridik va jismoniy shaxslarning o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi faoliyatini huquqiy tartibga solish (2-modda).

O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, maxsus vakolat berilgan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Davlat o'rmon qo'mitasi o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi maxsus vakolat berilgan davlat boshqaruv organlaridir.

O'simlik dunyosi davlat mulki – umummilliy boylik bo'lib, undan oqilona foydalanish zarur va u davlat muhofazasidadir (3, 4-moddalar).

“O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida”gi qonunning 6-7-moddalariga ko'ra o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish umumiy va maxsus bo'lishi mumkin. O'simlik dunyosi obyektlaridan umumiy foydalanish jismoniy shaxslar tomonidan hayotiy zarur ehtiyojlarni qondirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda va tartibda bepul amalga oshiriladi.

O'simlik dunyosi obyektlari maxsus foydalanishga, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun haq evaziga yuridik va jismoniy shaxslarga ruxsatnomalar asosida berib qo'yiladi. O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish uchun obyektlarning turini, hajmini va muayyan hudud doirasida foydalanish muddatini belgilaydigan ruxsatnoma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vakolatli davlat organlari tomonidan beriladi. O'simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish tartibi va shartlari qonun hujjatlarida belgilanadi.

O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish turlari quyidagilardan iborat:

- Chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi ozuqa mahsulotini tayyorlash;
- Chorva mollarini o'tlatish;
- O'simlik dunyosi obyektlaridan ovchilik xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish;
 - Yovvoyi o'simliklarning texnik, dorivor va oziq-ovqat maqsadlari uchun xom-ashyosini tayyorlash;
 - Daraxt va butalarni kesish;
 - O'simlik dunyosi obyektlaridan ilmiy-tadqiqot, madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy, sog'lomlashtirish, rekreatsion,estetik va tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida foydalanish;
 - Qonun hujjatlarida o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanishning boshqa turlari ham nazarda tutilishi mumkin.

O'simliklar dunyosi obyektlaridan foydalanish normativi va uning holati qonunning 9-moddasida o'z aksini topgan. Unga ko'ra o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish normativlari quyidagilardan iborat:

- Dorivor va ozuqabop o'simliklarning yovvoyi turlarini hamda o'simliklar texnik xom ashyosini tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi bilan kelishib tasdiqlangan kvotalar:
 - Tabiiy pichanzorlar va yaylovlarda pichan o'rish hamda chorva mollarini o'tlatishning mahalliy davlat hokimiyati organlari tegishli qishloq va suv xo'jaligi, shuningdek, o'rmon xo'jaligi davlat organlari taqdimnomasi bo'yicha tasdiqlangan normalari va muddatlari: qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa normativlar.

O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanuvchilar quyidagi huquqlarga ega:

- O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanishning belgilangan qoidalariga rioya etishlari;

- Foydalanishga berib qo'yilgan o'simlik dunyosi obyektlaridan oqilona foydalanishlari;
- O'simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish va ularni takror yetishtirish chora-tadbirlarini amalga oshirishlari;
- O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish joylarida yong'in xavfsizligiga rioya etishlari va yong'inga qarshi tadbirlarni amalga oshirishlari, yong'in chiqqan hollarda esa uni o'chirish choralarini ko'rishlari;
- O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanganlik uchun haqni o'z vaqtida to'lashlari shart;

O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanuvchilar qonun hujjatlarida belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishlari mumkin (10-modda).

O'simlik dunyosi obyektlarini saqlab qolish va ularni takror yetishtirish hamda o'sadigan muhitni saqlash va qayta tiklash maqsadida o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda cheklab qo'yilishi, to'xtatib turilishi yoki man etilishi mumkin.

Qo'riqxonalar, qo'riqlanadigan tegrallar va tabiat yodgorliklarida o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simlik turlarini yig'ish man etiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan o'simlik turlaridan foydalanish, ular bilan savdo qilish, ularni chet elga olib chiqish alohida hollarda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining taqdimnomasi xulosasi bo'yicha beradigan ruxsatnomalar asosida yo'l qo'yiladi (11-modda).

"O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonunning 12-moddasiga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi ozuqa mahsulotini tayyorlash va chorva mollarini o'tlatish ana shu maqsadlar uchun ularga maxsus berib qo'yilgan tabiiy yem-xashak yetishtiriladigan maydonlarda quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- O'rmon fondi hududida o'rmon biletleri bo'yicha;
- Qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari egaligidagi yerlar hududida ularning ruxsatnomalari bo'yicha;
- Zahiradagi yerlarda mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari asosida.

Amaldagi qonunchilikda "Qizil kitobi"ga kiritilgan o'simliklarni yiqqanlik uchun javobgarlik mavjud bo'lib, bunday javobgarlik "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksida aniq ko'rsatilgan. Uning 81-moddasiga binoan "Qizil kitob"ga kiritilgan o'simliklarning ildizlari, poyalari, shoxlari, barglari, gullari, mevalari va urug'larini o'zboshimchalik bilan yig'ish;

Fuqarolarga eng kam ish haqining ikkidandan bir qismidan ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilgandan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa;

Fuqarolarga eng kam ish haqining ikki baravaridan yetti baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

O'simliklarni himoya qilish vositalari va boshqa dorilarni tashish, saqlash va qo'llanish qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan va bunday javobgarlik yuqorida tilga olingan Kodeksning 89-moddasida belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, o'simliklarni himoya qilish vositalarini tashish, saqlash va qo'llanish qoidalarini tuproq, suv, atmosfera havosining ifloslanishiga yoki o'simliklar, hayvonot dunyosining yo'q qilib yuborilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan tarzda buzish, fuqarolarga eng kam ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilgandan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa yoki tuproq, suv, atmosfera havosining

ifloslanishiga, o'simlik va hayvonot dunyosiga zarar yetkazishiga olib kelsa, fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

2.4.UMUMBASHARIY EKOLOGIK HAMKORLIK MASALALARI

Bugungi globallashuv jarayonida ekologik muammolarning avj olib ketayotganligi sababli tabiatni inqirozga uchrashi mumkinligi, hech kimga sir bo'lmay qoldi, bu inqirozning oldini olish,ona tabiatga nisbatan mehr-muhabbatli bo'lish, shu maskanda yashayotgan har bir vijdonli kishining burchi hisoblanadi.Tabiatni muhofaza qilish yer yuzidagi butun insoniyatni baxt-saodati, kelajakda yashaydigan avlod taqdiri uchun g'amxo'rlik qilishdir.Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov "Butun dunyo yagona va o'zaro bog'liqdir. Bizning mushtarak burchimiz yer yuzini farzandlarimizga obod va baxtiyor yashashlari uchun munosib qilib qoldirishdir",- deb bejiz aytmagan edilar. Tabiatni muhofaza qilish deganda butun insoniyat manfaatlarini ko'zlab, tabiatdan oqilona foydalanish, uni saqlash, qo'riqlash va tabiiy boyliklarini ko'paytirish yo'lida davlatlar va xalqlarning ilmiy jihatdan asoslangan kompleksi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasida Istiqlolga erishganidan so'ng tabiat va uning boyliklarini muhofaza qilish ishiga ayniqsa, juda katta e'tibor berildi. Tabiatni muhofaza qilish hozirgi zamondagi eng dolzarb muammolardan biri inson bilan tabiat o'rtasidagi va tabiat bilan inson o'rtasidagi, jamiyat bilan tevarak-atrofdagi muhit o'rtasidagi muammoning tarkibiy qismidir. Muammoning mohiyati shundaki, tabiat eng avvalo, inson uchun qo'riqlanishi kerak.Inson tabiat bilan har doim bir butunni tashkil qilgan, chunki inson tabiatning tarkibiy qismidir.Inson o'zining tabiat bilan bo'lgan bevosita aloqasi orqali tabiiy muhitga juda katta ta'sir qilib kelgan.

XALQARO EKOLOGIK HAMKORLIK (XEH) - yer yuzidagi barcha mamlakatlar tomonidan tabiat muhofazasiga doir xalqaro kelishuv-shartnoma, konvensiyalar tuzish, xalqaro ekologik me'yorlarni ishlab chiqish va ularga rioya etilishini hamkorlikda nazorat qilish, umumsayyoraviy va hududiy ekologik muammolarni birgalikda hal etish, ilmiy tadqiqotlar va turli xalqaro anjumanlar o'tkazish kabi keng ko'lamlı tadbir-choralar kompleksi tushuniladi. XEH quyidagi tamoyillarga asoslangan bo'lishi lozim:

- sayyoramizdagi har bir inson sog'lom ekologik sharoitlarda yashash huquqiga ega ekanligi;
- har bir mamlakat atrof-muhit va tabiiy resurslardan o'z fuqarolari manfaatları yo'lida foydalanish huquqiga ega ekanligi;
- bir davlatning ekologik muvaffaqiyati boshqa davlatlar hisobiga bo'lmasligi yoki ularning manfaatlariga zid bo'lishiga yo'l qo'ymaslik;
- har bir davlat hududidagi ishlab chiqarish faoliyati shu davlatdagi va undan tashqaridagi tabiiy muhitga zarar yetkazmasligini ta'minlash;
- ekologik oqibatlarni bashorat qilib bo'lmaydigan har qanday xo'jalik va boshqa turdagi faoliyatlarni amalga oshirilishiga yo'l qo'ymaslik;
- tan olingan xalqaro me'yorlar va andozalar asosida atrof-muhit, tabiiy resurslar va ulardagi o'zgarishlar ustidan nazorat o'rnatish;
- atrof-muhit muhofazasi bo'yicha erkin, keng qo'lamlı xalqaro ilmiy-texnik axborotlar almashish va tabiatni asraydigan ilg'or texnologiyalarni joriy etish;
- sayyoramizning biror-bir hududida favqulodda ekologik holat ro'y berganda davlatlar bir-birlariga o'zaro yordam ko'rsatishi;
- atrof-muhit muammolari bilan bog'liq barcha kelishmovchiliklarni tinchlik yo'li bilan hal etish.

Hozirgi paytda XEH asosan ikki xil shakldanamoyon bo'lmoqda:

1. Atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan ikki yoki ko'p tomonlama davlatlararo bitim, shartnoma va konvensiyalar tuzish.

2. Turli xalqaro tabiatni muhofaza qiluvchi uyushma, komissiya va tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish.

XEH umumbashariy qadriyatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida so'nggi yuz yildan ko'proq vaqtdan beri shakllanib, takomillashib bormoqda. Uning dastlabki ko'rinishlari XIX asr oxirlaridan boshlab hayvonotlardan foydalanishni tartibga solishga qaratilgan davlatlararo harakat tarzida namoyon bo'la boshladi.

To'rt yillik tayyorgarlikdan so'ng 1972-yil da Stokgolm (Shvetsiya)da 113 mamlakat, turli davlatlararo va nodavlat tashkilotlari ishtirokida BMTning atrof-muhit muhofazasi bo'yicha konferensiyasi o'tkazildi. Uning natijalari asosida «Atrof-muhit to'g'risida deklaratsiya» qabul qilindi, uning qisqacha mazmuni quyidagicha edi:

- Taraqqiy etgan mamlakatlar rivojlanayotgan davlatlarga atrof-muhit muhofazasi uchun aniq sharoit va ehtiyojini e'tiborga olib mablag'lar ajratishlari zarur.
- Tabiiy resurslarni hozirgi va kelajak avlodlar uchun saqlab qolish zarur. Barcha mamlakatlar XEH ni samarali rivojlantirishda faol hamkorlik qilishlari lozim.
- Har bir inson ozod, teng huquqli va qulay bo'lgan atrof-muhit sharoitida yashashga haqlidir.
- Insonlarni ezishning apparteid, irqiy kamsitish, mustamlaka qilish va boshqa shakllari tugatilishi lozim.
- Yadro qurollari sinovini to'xtatish zarur.

Stokgolm konferensiyasi qarorlari BMTning 32-Bosh Assambleyasida ko'rib chiqildi va ular asosida 11 ta rezolyutsiya qabul qilindi. Bu rezolyutsiyalarda BMTning atrof-muhit muhofazasi sohasidagi tadbirlarining tashkiliy, ma'muriy va huquqiy asoslari yoritib berildi. BMT tomonidan biosferaning tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni saqlab qolish masalalarini ilmiy jihatdan asoslashga katta e'tibor berila boshlandi. YUNESKO ning 16 (1970-y.) sessiyasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha yangi «Inson va biosfera» - MAB dasturini amalga oshirishga qaror qilindi. Dasturni amalga oshirish uchun 25 ta davlat vakillaridan iborat Xalqaro muvofiqlashtiruvchi Kengash (XMK) tuzildi. MAB ning dastlabki faoliyatida tashkiliy masalalarga kengroq o'rin berilgan bo'lsa, 70-yillar oxiridan boshlab atrof-muhit muhofazasining 5 ta yetakchi mavzui, ya'ni nam tropik o'rmonlar; qurg'oqchil yerlar; biosfera qo'riqxonaiari; shahar ekotizimlari; kadrlar tayyorlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirishga e'tibor qaratila boshlandi. Hozirgi kunda MAB dasturining 973 ta loyihasini amalga oshirishda 80 dan ortiq davlatlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Atrof-muhit muhofazasi masalalariga dunyo jamoatchiligi e'tiborini yanada kuchaytirish maqsadida 1972-yil BMTning 1-jahon kongressida har yili 5 iyunni «Xalqaro tabiatni muhofazalash kuni» deb e'lon qilindi. Shu yili BMT Bosh Assambleyasining 27-sessiyasida davlatlararo hamkorlikning tashkiliy va moliyaviy tadbirlarini belgilovchi «Tashqi muhit bo'yicha BMTning ish dasturi» (YUNEP) va uni boshqaruvchilari Kengashi ta'sis etildi. 1973-yil (Stokgolm) mazkur kengashning 1-sessiyasida «Atrof-muhit sohasidagi harakat dasturi» muhokama qilinib, unda XEH ning 7 ta eng asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Bu dastur (YUNEP)ga binoan atrof-muhit muhofazasiga oid tadqiqotlarni tashkil etish, muvofiqlashtirish va biosfera holatini kuzatuvchi (monitoring) stansiyalarini tashkil etish ishlari avj oldirildi.

1974-yil BMTning atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga bag'ishlangan maxsus Bosh sessiyasi o'tkazildi. Unda «Yangi xalqaro ekologik tartiblarni o'rnatish haqida deklaratsiya» va bu tartiblarni

o'rnatishning harakat dasturidan iborat 2 ta muhim xalqaro hujjat tasdiqlandi. Bu hujjatlarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish muammosiga katta e'tibor berildi, jumladan, saholashish va yerlarning sho'rlanishining oldini olish, tabiiy va oziq-ovqat resurslariga zararli ta'sirlarni kamaytirish, ifloslanishga qarshi kurash, resurslarni muhofazalash va qayta tiklash bo'yicha zudlik bilan choralar ko'rishga chaqirildi.

XEH ning yanada rivojlanishiga BMTning 29-Bosh Assambleyasida (1974-yil) qabul qilingan davlatlarning iqtisodiy huquq va majburiyatlari to'g'risidagi hujjat katta ta'sir ko'rsatdi.

1974-yil Buxarestda BMTning aholi nufuziga bag'ishlangan umumjahon konferensiyasi o'tkazildi. Unda 36 davlat vakillari ishtirok etdilar. Konferensiyada tez o'sib borayotgan dunyo aholisi ehtiyojini tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali qondirish imkoniyati mavjudligi haqida ma'lumotlar keltirildi. Konferensiya ishtirokchilarining tan olishlaricha agar mavjud mineral va energetik resurslardan oqilona foydalanilsa, ular hozirda o'sib borayotgan aholi ehtiyojini to'la qondirishga yetarlidir. Ekspertlarning baholashicha, sayyoramizning mavjud tuproq qatlami 76 milliard aholi ehtiyojini minimal yoki 38-48 milliard aholini talab darajasida ozuqa bilan ta'minlashi mumkin ekan. Dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammosiga bag'ishlangan Umumjahon oziq-ovqat konferensiyasi Rimda (1974-y.) bo'lib o'tdi. Unda 133 davlat va turli tashkilotlarning vakillari qishloq xo'jaligini rivojlantirish, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash darajasini yaxshilash, ocharchilik va qahatchilikka barham berish kabi muammoli masalalarga e'tibor qaratdilar. Shu jumladan, bu muammolarni hal etishda XEH zarur omillardan biri ekanligi ta'kidlandi.

Rivojlanmagan mamlakatlardagi millionlab aholining hayoti, salomatligi chuchuk suv muammosi bilan bog'liq bo'lib, BMTning 28 (1973), 29 (1974) va 6 (1974)-maxsus sessiyalari jahon bo'ylab kuzatilayotgan suv tanqisligi muammosi masalalariga qaratildi. 1977-yilda Mardel-Plata (Argentina) shahrida ushbu muammo bo'yicha Xalqaro konferensiya o'tkazildi. Unda 116 davlat va turli

tashkilotlar qatnashdilar. Bu sessiya va konferensiyalarda suv ta'minotini yaxshilash, suvlardan oqilona foydalanish masalalari Xalqaro darajada tahlil etildi.

Quruqlikning 1/3 qismidan ko'prog'i qurg'oqchil hududlar hisoblanadi, bunday yerlarning maydoni so'nggi yillarda antropogen tazyiq ostida yanada kengayib bormoqda. Hozir dunyoning 628 mln.(14%) aholisi shu tufayli zarar ko'rmoqda, ya'ni yerlarni «cho'llashuvi» insoniyat oldidagi umumsayyoraviy ekologik muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu muammoga bag'ishlangan konferensiya 1977-yilda Nayrobida (Keniya) bo'lib o'tdi. Unda 95 mamlakatdan vakillar ishtirok etdilar. Konferensiyada yerlarning «cho'llanish» muammosi keskinlashib borayotganligi, buning asosiy sababi yer resurslaridan nooqilona foydalanish ekanligidir deb e'tirof etildi. Konferensiyaning asosiy natijalari BMTning 33 (1977) sessiyasida ma'qullandi. Yerlarni cho'llashishi bilan kurashish harakatini amalga oshirish YUNEP va Atrof-muhit muhofazasi bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash zimmasiga, keyinchalik BMT ning ma'muriy muvofiqlashtiruvchi kengashiga yuklatildi.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik Xelsinki (Finlandiya) kengashida ham ekologik masalalarga keng o'rin berildi. Kengash xulosalarining katta bir bo'limi atrof-muhit muhofazasiga bag'ishlandi. Unda Yevropa va Shimoliy Amerikaning siyosiy arboblari «Xalqlarning farovon yashashi va iqtisodiy taraqqiyotida-hozirgi va kelajak avlod manfaatlari yo'lida atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari muhim o'rin tutadi. Bu masalalarning hal etilishiga esa faqat Xalqaro hamkorlik yo'li bilangina erishish mumkin» degan xolisona fikrga keldilar.

BMTning 35-(1980) sessiyasida Yer tabiatini saqlab qolish bo'yicha «Davlatlarning hozirgi va kelajak avlod oldidagi tarixiy mas'ulyati haqida» gi rezolyutsiya loyihasi ko'rib chiqildi va u ko'p davlatlar tomonidan ma'qullandi.

80-yillarda ham BMT tomonidan atrof-muhitning muhim masalalariga bag'ishlangan bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 1981-yilda Nayrobida

energiyaning yangi va qayta tiklanadigan manbalari bo'yicha 125 davlat va 56 ta Xalqaro tashkilot vakillari ishtirokida konferensiya o'tkazildi. Unda energetik tanglikning sabablari keng muhokama qilindi va ochib berildi. Energiya olishning yangi va qayta tiklanuvchi manbalarini kashf etish va ulardan foydalanish bo'yicha harakat dasturi qabul qilindi. BMTning atrof-muhit muhofazasiga bag'ishlangan tadbirlari orasida qariyb o'n yil (1973—82-yillar) davom etgan dengiz suvlaridan foydalanish huquqlari bo'yicha o'tkazilgan 3- konferensiya muhim ahamiyatga ega. Fan-texnikaning shiddatli rivoji okean va dengiz resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi va shu bilan birga insonning dunyo okeaniga tazyiqining kuchayishiga olib keldi. 1982-yilda Monteo-Bey (Yamayka)da konferensiyaning yakuniy hujjati imzolandi. Dengiz huquqlari bo'yicha konvensiya davlatlar tomonidan imzolash uchun tavsiya etildi. 120 dan ziyod davlatlar bu muhim hujjatni tasdiqladilar. Ushbu konvensiya dengiz va okeanlardan foydalanishning xalqaro huquq va tartiblariga doir 500 dan ortiq moddalar va bo'limlarini o'z ichiga olgan. Jumladan, unda birinchi marta hududiy suvliklar uchun 12 milli chegara va 200 milli ekologik mintaqalar chegaralari belgilanib, undan tashqaridagi dengiz resurslari barcha insoniyatga tegishli ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

1985-yilda Venada (Avstriya) BMT rahnamoligida ozon qatlamini muhofazalash bo'yicha konvensiya qabul qilindi. Ushbu konvensiyadan kelib chiqib dunyoning bir qator mamlakatlari ozon qatlamini yemiruvchi moddalar ishlab chiqarishni to'liq to'xtatish yoki qisqartirish bo'yicha ixtiyoriy majburiyatlar oldilar. Konvensiyada bundan tashqari ozon qatlamini muhofazalashning turli jihatlariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va amalga oshirish ko'zda tutilgan.

1986-yilda BMT yadro va radiatsion falokatlar holatlarida Xalqaro yordam berish yuzasidan konvensiya qabul qildi.

1989-yilda Moskvada BMTning ekologik vaziyatlar haqida axborotlar ayirboshlash masalalari bo'yicha konferensiyasi o'tkazildi. Hozirgi paytda YUNEP ning axborot xizmati o'zida dunyoni 99% aholisini qamrab olgan 135 mamlakatni birlashtirgan.

1989-yilda Gaagada atmosferani himoyalash bo'yicha Xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi, unda 24 davlat boshliqlari iqlimning umumsayyoraviy isishi va ozon qatlamini yemirilishi ekologik holatga eng ko'p xavf solayotgan jarayon ekanligini va uning oldini olish uchun BMT rahnamoligida Xalqaro tashkilot tashkil etish zarurligini ta'kidladilar. Konferensiya yuqoridagi jarayonlarning oldini olishga chaqiruvchi Gaaga deklaratsiyasini qabul qildi. Bundan tashqari, deklaratsiyada davlatlar va tashkilotlar tomonidan ekologik majburiyatlarni buzganligi uchun Xalqaro BMT Sudi haqida ham fikrlar bildirildi.

1989-yilda Nayrobida atrof-muhit holatini nazorat qilib turish maqsadida kosmik laboratoriya barpo etish bo'yicha qaror qabul qilindi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, XX asrning 70-80-yillarida BMTning barcha muassasa, hay'at va tashkilotlari atrof-muhit muhofazasiga yo'naltirilgan faoliyatlarini qayta ko'rib chiqdilar va sezilarli kuchaytirdilar.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi, yangi demokratik jamiyatni qurila boshlagani bir qator muhim, jumladan, atrof-muhit muhofazasi sohasidagi Xalqaro hamkorlik masalalarini hal etilishiga yangicha yondashishni taqozo etadi.

O'zbekistonning 1992-yil 2-martda BMTga teng huquqli a'zo bo'lib kirishi tabiat muhofazasi sohasidagi Xalqaro hamkorlik uchun ham keng yo'l ochib berdi. 1992-yili Rio-de-Janeyroda o'tkazilgan BMTning 2-jahon tabiatni muhofaza qilish kongressida Respublikamiz birinchi bor mustaqil davlat sifatida qatnashdi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda BMTning atrof-muhit muammolari bilan shug'ullanuvchi 7 ta missiyasi faoliyat ko'rsatmoqda, ayniqsa, Orol va Orol bo'yidagi ekologik muammolar Xalqaro tashkilotlarning diqqat markazida bo'lib ushbu yo'nalishda turli tadbirlar o'tkazilmoqda.

Xalqaro hamjamiyatning tarkibiy qismi hisoblangan Markaziy Osiyo mintaqasini barqaror rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni yechishda O'zbekiston XEH masalalariga katta e'tibor bermoqda. Respublikada tabiatni muhofaza qilish ishlari boshqa davlatlar va Xalqaro

tashkilotlar bilan har tomonlama hamkorlik qilish orqali amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillarida atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning turli jihatlarini tartibga soluvchi ko'plab Xalqaro shartnomalar va bitimlar tuzildi. Respublikamiz XEHning turli yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilayotgan Xalqaro tadbirlarda faol ishtirok eta boshladi. O'zbekiston Respublikasi 1985-yilda bo'lib o'tgan ozon qatlamini himoya qilish (Vena) konvensiyasi, 1987-yilgi ozon qatlamini yemiruvchi birikmalar bo'yicha Protokol (Monreal), 1989-yilgi (Bazel) xavfli chiqindilarni chegaralararo tashishni nazorat qilish konvensiyasi, 1992-yilgi (Rio-de-Janeyro) biologik rang-baranglikni saqlash konvensiyasi, 1992-yilgi (Nyu-York) iqlim o'zgarishi to'g'risidagi konvensiyalarga qo'shildi. Ushbu yo'nalishlarda faol harakatlar amalga oshirilmoqda. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi har qanday davlatlararo hamkorlik ekologik vaziyatni mahalliy, regional va umumbashariy darajada yaxshilashning asosidir.

O'zbekiston 1992-yilda imzolangan MDH Davlatlararo Ekologiya Kengashining teng huquqli a'zosi hisoblanadi. Respublikaning XEH borasidagi faoliyati, ayniqsa Orol muammosiga qaratilgan masalalarda yanada yaqqolroq namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonning faol ishtiroki va sa'y-harakatlari tufayli Orol dengizi muammolari bo'yicha Davlatlararo Kengash va uning ishchi organi ijroi qo'mitasi, Orolni qutqarish Xalqaro fondi tashkil etildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekistonning tashabbusi bilan 1995-yili Toshkentda Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlik muammolariga bag'ishlangan Xalqaro seminar o'tkazildi. Unda 20 ta Xalqaro tashkilot va 30 dan ortiq mamlakat vakillari ishtirok etdilar.

1995-yilda Nukusda Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xalqaro tashkilotlarning Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish masalalari bo'yicha Deklaratsiya qabul qilindi.

Insoniyat boshiga ko'lanka solib turgan ekologik falokatlarning oldini olish bo'yicha Xalqaro hamkorlik ma`lum darajada shakllangan va muhim tadbirlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, hali bu boradagi ishlarni yanada izchil faollashtirish

zarur. Chunki hozirgacha atrof-muhit muhofazasi va insoniyatga yetarli, qulay yashash sharoitlarini yaratish masalalarini boshqarib turuvchi tom ma'nodagi keng ko'lamli, ta'sirchan, xolis, yagona Xalqaro tizim vujudga kelgani yo'q. Ko'rinib turibdiki, XEH takomillashib borishi insoniyat taraqqiyotining bundan keyingi bosqichlarida ham muhim hayotiy zarurlardan biri bo'lib qolaveradi.

“Inson huquqlarining umumiy deklaratsiyasi”da “Har bir kishi bilim olish huquqiga ega” deb yozib qo'yilgandir.1990 yilda BMTning Taraqqiyot Dasturi, YUNESKO, YUNISEF, YUNITAR va butunjahon banki “Umumiy ta'lim bo'yicha butunjahon konferensiyasini chaqirib, umum ta'lim Jomten deklaratsiyasini qabul qildilar va mana shu hujjatga asosan ishlar olib borilmoqda.

Kishining tabiatga ta'siri uning mehnat faoliyati bilan bog'liq, ya'ni kishilar tabiatga o'z mehnatlari orqali ta'sir ko'rsatadilar, o'z mehnatlari bilan tabiatni o'zgartiradilar. Ma'lumki, hozirgi vaqtda kishilarning faoliyati butun planetamizni qamrab olgan. Kishilar tabiatni muhofaza qilishni dastlabki paytlardan o'ylay boshlaganlar deb bo'lmaydi. Kishilar tabiatni cheksiz, uning resurslari bitmas-tuganmas, deb o'ylaganlar va shunga yarasha muomala qilganlar. Bugungi kunga kelib esa tabiat boyliklari ham cheksiz emas, balki tugashi mumkinligi, ulardan tejab-tergab foydalanish kerakligini tushundilar. Tabiiy muhit va tabiiy resurslar hozirgi davrda duhyo miqyosida nihoyatda ehtiyot qilinishi kerak bo'lgan qimmatli ijtimoiy boylikdir. Tabiiy muhit ayrim davlat fuqarolari, shuningdek, butun insoniyatning kelajakda farovon hayot kechirishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirish yo'li bilan muhofaza qilinishi kerak.

Fan-texnika rivojlangan, taraqqiy etgan sharoitda tabiatni muhofaza qilish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilish uchun bu ishni mustahkam ilmiy asosda qurish lozim.

Tabiat olamida inson hayoti va jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lmagan va muhim ahamiyat kasb etmagan narsaning o'zi yo'q. Tabiat inson uchun tabiiy

boyliklar manbaidir. Tabiat insoniyat uchun moddiy boyliklarning birinchi manbai sifatida ham, sihat-salomatlik, shod-xurramlik, ma'naviy-ruhiy barkamollikning asosi sifatida ham o'zining g'oyat zo'r, kuchli ta'siri va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi. Yurtboshimiz Islom Karimovning "Ona zaminimiz – boyligimizning, mustaqilligimizning va go'zal kelajakka ishonchimizning asosiy manbaidir", - degan so'zlariga asoslanib, inson tabiat bilan tirik deyish mumkin. Inson ona-tabiat farzandi. Farzand uchun esa onadek mehribon va g'amxo'r kishi yo'q dunyoda, shunday ekan kishi tabiatdan ayricha yashay olmaydi. Inson ko'z ochib ko'ribdiki, tabiat bag'rida yashaydi. Tabiat bag'ri inson uchun hamisha ochiq. U saxovatini, noz-ne'matlarini insondan ayamaydi. Yer jamiki boyliklarning manbai hisoblanadi, shuning uchun ham inson uni benihoya ulug'lab, e'zozlab, ona-zamin deb ta'riflaydi.

Hukumatlar Rio-de-Janeyroda Yer muammolariga bag'ishlab o'tkazilgan oliy darajadagi uchrashuvda, "Kun tartibida XXI asrga tashrif" dasturini qabul qildilar. Mazkur dasturga asosan atrof-muhit holatining yomonlashayotganligiga chek qo'yish va XXI asrdagi barqaror hayot hamda taraqqiyot uchun asos yaratish choralari belgilandi. Atrof- muhit va taraqqiyot bo'yicha Rio deklaratsiyasi davlatlarning huquq va majburiyatlarini belgilab berdi. Mazkur dasturning tamoyillari quyidagicha:

-Insonlar tabiat bilan uyg'un holatda sog'lom va farovon hayot kechirishga haqlidirlar.

-Sanoati rivojlangan mamlakatlar barqaror taraqqiyot uchun xalqaro kurashda global atrof-muhitga o'zlarining jamiyatlari ko'rsatayotgan bosim nuqtai-nazaridan, qo'l ostidagi texnologiyalar vamoliyaviy resurslar uchun mas'uliyatni tan oladilar.

-Davlat shaxsiy resurslarni ekspluatatsiya qilishda suveren huquqga ega, ammo atrof- muhitga ziyon etkazmasligi kerak.

-Qashshoqlikka barham berish va dunyo miqyosidagi yashash tarzlaridagi farqlarni kamaytirish barqaror taraqqiyot uchun g'oyat zarurdir.

BMT Bosh Assambleyasining 1993 yil 28 sentabrdagi 48 sessiyasida butun jahon xalqlarining diqqat e'tibori Orol muammosiga qaratildi. Respublika Prezidenti I.Karimov o'z nutqlarida, "Dunyodagi ko'pgina mintaqalar qatori Markaziy Osiyo ham g'oyat katta miqyosdagi ekologik ofatlarga duch kelayapti. Keyingi yillarda uning hajmi 3 baravariga, maydoni 2 baravarga qisqardi. Orol dengizi qirg'og'i 80 kilometrga chekinib, suvdagi tuzlar miqdori 4 marta oshdi. Orolning halokati butun dunyo uchun oldindan aytib bo'lmaydigan halokatlar keltirib chiqarmoqda. Biz jahon hamjamiyatiga murojaat qilib, Orolni va Orolbo'yini qutqarishga chaqiramiz" degan edilar.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1992 yilda qabul qilingan Iqlim o'zgarishlari to'g'risidagi konvensiyasi YUNEP va xalqaro meteorologiya tashkiloti bilan birgalikda ishlab chiqilgan. Mazkur konvensiyaga inson faoliyatitufayli asta sekinlik bilan global haroratning ko'tarilishi natijasida havoning global qizib ketishiga qarshi kurash borasida boshlangan harakatlar asos bo'ldi. Rioda imzolangan mazkur konvensiyani 1998 yilga kelib 174 mamlakat ratifikatsiya qildi. Iqlim o'zgarishlari muammolari bo'yicha BMT faoliyati haqida maxsus tashkil etilgan Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi axborotlar berib turadi. Mazkur guruh 1988 yilda tashkil topgan bo'lib, 2500 nafar olimdan iboratdir, uning faoliyatini YUNEP va Butunjahon meteorologiya tashkiloti muvofiqlashtirib turadi. Ekspertlar tomonidan 1995 yilga kelib, "Inson global iqlimga sezilarli ta'sir ko'rsatadi" degan xulosaga kelindi. 1997 yilda Kiota shahrida huquqiy majburiy protokol imzolanib, unga muvofiq sanoati rivojlangan mamlakatlar 2008-2012 yillar mobaynida o'zlari chiqarayotgan olti xildagi gazni 1990 yildagidan ham 5,2 foizga kamaytirishlari kerak bo'ladi.

Tabiatga mehr odam dunyoga kelgan vaqtdan, go'daklik chog'idan boshlab singa boshlaydi. Bu jarayon umrbod davom etadi. Tabiatga mehri kuchli bo'lgan odamning el-ulusga, Vataniga bo'lgan mehri ham yuksak bo'ladi. Qalbida mehr-

shafqat, rahmdillik singari yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar ustuvorlik qiladigan odamlar tabiatdagi har bir narsa va hodisaga oqilona munosabatda bo'ladi. O'sib turgan daraxt shoxini sindirmaydi, axlat tashlab suvni iflos qilmaydi, havoning bulg'anishiga yo'l qo'ymaydi, yashil g'iyohlarni payhon qilmaydi, bitta daraxt o'rniga o'nta o'tqazadi, bog'lar yaratadi, mehnati, aql-idrok va tafakkurini ezgulikka, savob ishlarga bag'ishlaydi. Ota-onasidan risoladagidek yo'l-yo'riq, ta'lim-tarbiya olgan kishilarda tabiatga mehr-muhabbat tamomila boshqacha bo'ladi.

Ta'lim tarbiyada, ayniqsa tabiatni e'zozlash haqidagi sharqona, o'zbekona ta'lim-tarbiyada hikmat ko'p. Tabiatni e'zozlash, ona-zaminimizning har bir hovuch tuprog'ini muqaddas bilib, ko'zga surtish zarur va muhimligi haqidagi sharqona, o'zbekona ta'lim-tarbiya hozirgi davrda ayniqsa, dolzarb, o'ta ahamiyatlidir. Ekologik ta'lim-tarbiyaga oid bo'lgan ajdodlarimiz asriy tajribalarini, boy an'analarini zamonaviy mezonlar asosida davom ettirish, ijodiy rivojlantirish davr talabidir. Tabiatni buyuk ixlos bilan e'zozlash har bir inson zotining olijanob burchi va mas'uliyati va bunga hammani jalb qilish bugungi kun talablaridan biri ekanligini ham ta'kidlab o'tish zarur.

O'zbekiston Respublikasi ekologik muammolarni hal etishda dunyoda peshqadamlik qilib kelmoqda. Uning ijobiy sa'y-harakatlarini jumlai-jahon olqishlab, qo'llab-quvvatlab turibdi. Prezident I.A.Karimov rahbarligida tabiatni muhofaza qilish borasida qator tadbirlar ishlab chiqildi. Tabiat bag'ritoshlikni emas, ezgulikni, e'tiborni, mehr-muhabbatni yoqtiradi. Tabiatni e'zozlagan, tabiat bilan til topgan odam, xalq, elat va millat, davlat va jamiyat hech qachon kam bo'lmaydi. Atrof-muhitni muhofaza etish o'ta dolzarb muammoki, uni hal etishni also paysalga solib bo'lmaydi. Vaziyat zudlik bilan harakat qilishni, imkoniyatlarni qo'ldan boy bermaslikni taqozo etmoqda.

Atrof-muhit muhofazasini tashkil etish va uni amalga oshirishda turli chora-tadbirlarni qo'llash bilan birga ona tabiatni, jamiyatning barcha a'zolarini eng yosh fuqarolaridan keksa kishilarigacha asrab-avaylashga, ularga nisbatan ongli

munosabatda bo'lishga, tabiat manbalaridan tejab-tergab, me'yorida foydalanish, salbiy fojiviy hollarning oldini olish, saqlab qolish uchun chora izlash, xullas, atrof-muhitni doimo toza saqlashga muntazam da'vat etish benihoya ulug'vor vazivamizdir. Aholi ongiga "Tabiat- bu men va sen, biz yashaydigan makon, butun Yer kurrasi mavjudotlari yashaydigan yagona zamin" degan asosiy nazariy va amaliy bilimlarni singdirish lozimdir. Tabiatni muhofaza qilish – barchaning burchi, maqsadi va vazifasi bo'lishi bugungi kun talabi hisoblanadi.

Yoshlarni ma'lumotli bo'lishi, kasb-hunar o'rganishi va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalanishida maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning roli katta va ma'suliyatidir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda atrof-muhit to'g'risidagi tasavvurlar oilada, bog'chada paydo bo'ladi. Bunda ota-onalar va tarbiyachilarning roli katta hisoblanadi, qaysiki, tarbiyachi to'g'ri tarbiya bersa bola kelajakda tabiatga, uni boyliklariga hech vaqt ziyon yetkazmaydi. Hozirgi maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari 5-10 yildan keyin mustaqil vatanimiz tabiatining xo'jayinlari bo'lib yetishadilar. Shuning uchun ham bugungi kundagi o'quvchilarni tabiatni sevishga, tabiatga hurmat bilan qarashga, uni e'zozlashga o'rgatish maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari jamoasining ham burchidir. Tabiatni muhofaza qilish esa maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quv-tarbiya ishlarining ajralmas qismidir. Tabiatga to'g'ri munosabatda bo'lish va tabiatni muhofaza qilishni maktab yoshidagi va hatto kichik yoshdagi bolalar o'rtasida ham olib borish zarur. Tabiatni muhofaza qilish vazifalari va bu ishni tashkil etish to'g'risida gapirganimizda, maktablarimizni, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini tilga olmasa bo'lmaydi. Demak, o'quvchilar ongida ekologik madaniyatni, tabiatga muhabbatni uyg'otishda, avvalo tarbiyachilarning o'zi shunday bilimga ega bo'lishi kerak, shu nuqtai-nazardan bo'lajak pedagoglar ongiga tabiatni muhofaza qilishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini singdirish maqsadga muvofiq. Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini tabiatni sevishga, tabiatga mamlakatimiz boyligi sifatida munosabatda bo'lishga, hamda

uni muhofaza qilishga o'rgatish oily ta'lim yurtini tugallab boradigan pedagoglarning tabiatni sevishiga, tabiatga munosabatiga bog'liq. Zero, jonajon o'lka tabiatini muhofaza qilishda o'quvchilarning roli katta. Tabiatni muhofaza qilishning amaliy ishlarida maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning keng jamoatchiligi qatnashishi shart. Tabiatni muhofaza qilish masalasi maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari fanlari dasturiga kiritilgan bo'lib, bu fanlarni o'tadigan o'qituvchi tabiatga kuchli mehri va keng bilimga ega bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Istiqlolga erishgan dastlabki kunlardan oq, tabiatni muhofaza qilish sohasiga e'tiborni qaratdi. Shu nuqtai nazardan, 1992-yil 9-dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinganligini yuqorida aytib o'tgan edik. Ana shu qonunda tabiatni muhofaza qilishda xalqaro aloqalar va birgalikda faoliyat yuritish masalalari ham kiritilgan, jumladan Qonunining 53-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi tuzgan Xalqaro shartnomada ushbu Qonundagidek yoki O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilishga doir boshqa qonun hujjatidagidan o'zga qoidalar belgilangan bo'lsa xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasining qonunlarida birmuncha qattiqroq talablar belgilangan hollar bundan mustasno. Ifloslangan atmosfera havosi, suv havzalari, ko'chib yuruvchi mikroblar va hayvonlar davlat chegarasini bilmaydi. Bu hol birgina davlatni emas, balki barcha davlatlarning o'zaro va xalqaro hamkorlikda bo'lishini talab etadi. Shundagina tabiatni muhofaza qilish ishi dunyo xalqlari manfaatlariga qaratilgan bo'ladi. Dunyodagi barcha mamlakatlarning hamkorlikda faoliyat yuritishi talab etiladi, bu o'rinda O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (O'.I.Yo.K)ning tabiatni muhofaza qilish bo'yicha tuzgan dasturi muhimdir. Unga ko'ra tabiatni muhofaza qilishda mamlakatlar birgalikda quyidagi muammolarga e'tibor berishlari talab etiladi:

- Atrof-muhitni muhofaza qilishning ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy va pedagogik tomoni;
- Tabiatni muhofaza qilishning gigiyenik tomoni;

- Atmosferani zararli moddalar bilan ifloslanishdan saqlash;
- Suvni ifloslanishdan saqlash;
- Maishiy- kommunal, transport, qishloq xo'jaligi chiqindilarini va boshqalarni zararsizlantirish va tashlab yuborish masalasi;
 - Yer osti boyliklaridan oqilona foydalangan holda atrof-muhitning musaffoligini buzmaslik;
 - Ekosistema va landshaftlarni muhofaza qilish masalasi;
 - Shahar va shahar atrofi zonasini rejalashtirish va aholini joylashtirishda tabiat muhofazasi hamda yon- atrof muhitini sog'lomlashtirish masalasi;
 - Shovqin va turli tebranishlarning oldini olish masalasi;

Dasturda yana bir qancha muammolar o'z aksini topgan. Endi gap ana shu muammolarni izchillik bilan hal qilishga bog'lik bo'lib qolmoqda. Tabiatni muhofaza qilishda hamma mamlakatlar birdek ma'sul bo'lib, birgalikda hamjihatlikda faoliyat yuritisa, ekologik barqarorlikni shu bugungi holatini saqlab qolishga erishish mumkin bo'ladi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi va uning viloyatlardagi bo'limlari tomonidan qator yillar mobaynida mamlakatda ekologik holatni sog'lomlashtirishga qaratilgan atrof- muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni nazorat qilish ishlari olib orilmoqda. Respublika iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarida, hududlarni rivojlantirish sohasida, tashqi iqtisodiy aloqalarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning muhim ustuvor masalalari bo'yicha, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish ustuvorliklari va yo'nalishlarini amalga oshirish yuzasidan tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, shu asosda ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi globalashuv jarayonida jahon hamjamiyatining ustuvor vazifalaridan biri atrof-muhitni muhofaza qilish va sog'lomlashtirishni anglash, barqaror rivojlanish shartlarining ajralmas qismi hisoblanib, insoniyat hayotining barqarorligi, dunyo tamaddunining kelajagi xalqaro tashkilotlar kun tartibidan munosib o'rin oldi. Ekologik muammolarning transchegaraviy tavsifi, global iqlim o'zgarishlari bilan ularga qo'shimcha ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatni rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasida "Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga oid qonunchilikni yanada rivojlantirish, insonni va mamlakat aholisini ekologiyaning xavfli va tajovuzkor o'zgarishlaridan himoya qilish" bugungi kunda respublikamiz oldida turgan muammolardan biri ekanligi, shuning uchun ham ekologik harakat faollariga Qonunchilik palatasidan 15 ta joyning berilganligi haqida ta'kidlab otgan edilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Xalq ta'limi vazirliklari tomonidan BMTning Barqaror Rivojlanish uchun ta'lim bo'yigga dekadasi hamda BMT Evropa iqtisodiyot komissiyasi Strategiyasining

O'zbekistonda bajarilishigiga ko'maklashish va amalga oshirish boyichachora tadbirlar rejasi qabul qilingan edi.

Ekologiya va barqaror taraqqiyot ta'limi masalalari hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan bo'lib, o'qitish jarayonida, tabiat, jamiyat va inson munosabatlari uzviy aloqada ekanligi, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish lozimligini yosh avlodlar ongiga to'g'ri yetkazishda yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish mazkur masalani ijobiy echim topishiga imkon yaratadi. Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, XIX asrning oxiri, XX asrning boshlarida "Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir. Afsuski hali ko'plar bu muammoga beparvolik va mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lmoqdalar"¹.

Hozirgi globallashtirish davrida ekologik muammolar bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlarning tezkor holatdagi faoliyati ayniqsa juda muhimdir. Mazkur tashkilotlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti tasarrufiga birlashib, butun jahonda tinchlik va taraqqiyot borasidagi orzu- umidlarning amalga oshirish imkoniyati mavhum bo'lgan ko'plab g'oyat murakkab vazifalarni amalga oshirish uchun harakat qilmoqdalar. Demokratik tamoyillarni keng quloq yozdirish, erkinlikning misli ko'rilmagan imkoniyatlarini ochishga sabab bo'ladi. Shuningdek, globallashtirish davri bilim va axborotlarni keng tarqatish, dunyoning har bir burjida taraqqiyot uchun imkoniyatlar yaratish bilan butun dunyoni o'zgartirib yuboradi.

Globallashtirish jarayonida BMT, chuqur o'zgarishlar jarayonini boshidan kechirayotgan, mazkur o'zgarishlarni amalga oshirishni tanqidiy baholab, yangilanib borayotgan dunyoning ko'plab talablariga javob berishda o'zining markaziy rolini yanada oshirishga harakat qilmoqda. Jamiyatdagi qarashlar va ezgu maqsadlarni, fundamental o'zgarishlarni zimmsiga olgan global tashkilotning 185 a'zo mamlakatlaridan mislsiz yaratuvchilik, hamkorlik va siyosiy

¹Karimov I.O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T."O'zbekiston", 1997, 112 b.

qattiyatlarning talab etilishi tabiiy holdir. Zamonaviy, samarali faoliyat ko'rsatayotgan BMT, aniq maqsadga yo'naltirilgan, ko'p qirrali sayi- harakatlari tufayli ham barqaror hisoblanadi. Bosh assambleya qarshisida puxta ishlab chiqilgan islohot rejalarini qabul qilish, mustahkam moliyaviy baza yaratish maqsadida Xavfsizlik Kengashi va Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashlarni isloh qilish muammolari o'zining hal etilishini kutmoqda. Xalqaro tashkilotlarning turli sohadagi hamkorlik faoliyati barcha mamlakatlarni iqtisodiy jihatdan baquvvat, ekologik jihatdan toza, insonlarni sog'lom, aholi turmush darajasining yuksak bo'lishiga olib keladi.

XX asrning oxiri va XXI asrning dastlabki kunlarida butun insoniyat katta ekologik xavfga duch kelib, ekologik muammolar qachonlardir milliy va mintaqaviy muammolardan chiqib butun insoniyatning muammosiga aylangan.

Ekologik muammolarni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, dunyo tamadduning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ekologik muammolarning ijobiy hal qilinishiga bog'liqdir. Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar bilan hamkorlikda tabiatni, atrof muhitni himoya qilish, tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish masalalariga katta ahamiyat berilib, uning natijasi o'laroq, atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlari Respublikamizda ko'plab qabul qilinmoqda.

Insoniyatning kelajak taqdiri hozirgi davrda mavjud ekologik muammolarni hal qilinishiga, ulardan aholini, tabiatni qanday muhofaza qilishga bog'liq bo'lib qoldi. Boshqa mintaqalarda sodir bo'lganidek Markaziy Osiyoda, O'zbekistonda ham ekologik muammolar dolzarb bo'lib qoldi. Mamlakatdagi eng xavfli ekologik muammolar toza havo, ichimlik suvi, tuproq tarkibining buzilishi va Orol dengizining qurishi muammolari hisoblanib, mazkur muammolarning har birini ilmiy asoslangan holda qarash, tahlil qilish, oldini olish chora-tadbirlarini belgilaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ish boshlagan dastlabki 10 yilliklar mobaynida ekologik muammolar kun tartibida umuman ko'zga tashlanmagan edi. 1960 yillar mobaynida dengilarga ko'p miqdordagi neftlarning to'kilishi, atrof-muhitning global darajadagi ifloslanishi oqibatlarini xalqaro hamjamiyatni hushyor bo'lishga chaqirdi hamda 1970 yillardan boshlab BMT atrof-muhitning ahvoli to'g'risida g'amxo'rlik qiladigan va "Barqaror taraqqiyot" kabi yangi konsepsiyaning bosh tarafdori bo'lgan tashkilotga aylandi.

Hukumatlar Rio-de-Janeyroda Yer muammolariga bag'ishlab o'tkazilgan oliy darajadagi uchrashuvda, "Kun tartibida XXI asrga tashrif"² dasturini qabul qildilar. Mazkur dasturga asosan atrof-muhit holatining yomonlashayotganligiga chek qo'yish va XXI asrdagi barqaror hayot hamda taraqqiyot uchun asos yaratish choralari belgilandi. Atrof- muhit va taraqqiyot bo'yicha Rio deklaratsiyasi davlatlarning huquq va majburiyatlarini belgilab berdi. Mazkur dasturning tamoyillari quyidagicha:

-Insonlar tabiat bilan uyg'un holatda sog'lom va farovon hayot kechirishga haqlidirlar.

-Sanoati rivojlangan mamlakatlar barqaror taraqqiyot uchun xalqaro kurashda global atrof-muhitga o'zlarining jamiyatlari ko'rsatayotgan bosim nuqtai-nazaridan, qo'l ostidagi texnologiyalar vamoliyaviy resurslar uchun mas'uliyatni tan oladilar.

-Davlat shaxsiy resurslarni ekspluatatsiya qilishda suveren huquqga ega, ammo atrof- muhitga ziyon etkazmasligi kerak.

-Qashshoqlikka barham berish va dunyo miqyosidagi yashash tarzlaridagi farqlarni kamaytirish barqaror taraqqiyot uchun g'oyat zarurdir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti turli mamlakatlar orasida bo'ladigan madaniy va ilmiy yutuqlarni almashinuv jarayoniga, shuningdek kommunikatsiyon

²BMT.Asosiy omillar.2001.226- b

aloqalarga xalqaro tinchlik va taraqqiyotga muhim hissa qushuvchi omillar sifatida qaraydi. Uzining maorif sohasidagi asosiy faoliyatidan tashqari Birlashgan Millatlar Tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO) boshqa yana uch sohaga diqqat e'tiborini qaratadi. Ular - taraqqiyotga xizmat qiluvchi fan, madaniy taraqqiyot, shuningdek axborot va informatikaning muloqotidan iboratdir.

"Fan taraqqiyot xizmatida " bosh dasturi - tabiiy, fizik, ijtimoiy va gumanitar fanlar borasidagi bilimlarni taqdim etish va almashinishini takomillashtirishga yordam beradi.

YUNESKOning hukumatlararo dasturlaridan quyidagilarni ta'kidlash mumkin: "Inson va biosfera" - Hukumatlararo okeanshunoslik komissiyasi dasturi; Atrof-muhit va hududlar taraqqiyoti bo'yicha loyiha; Ijtimoiy qayta tuzishlarni boshqarish bo'yicha dastur; Xalqaro gidrologiya dasturi va Xalqaro geologiya korrelyatsiya dasturi.

Tirik jonzotlarning klonlashtirish sohasida erishilgan ilmiy yutuqlarga javoban YUNESKOga a'zo davlatlar 1997 yilda genetik tadqiqotlar etikasi bo'yicha birinchi xalqaro hujjat bo'lgan "Inson genomi va inson xususiyatlari to'g'risida" umumiy deklaratsiya qabul qildi. Deklaratsiya insonni genetik tadqiq etishga, uning natijalarini amaliyotga tadbiq etish sohasidagi inson huquqlarini himoyalash va bu kabi huquqlarni yashirin poymol etilmasligidan insoniyatni muhofaza qilish zarurati bilan olimlarning faoliyatlarini davom ettirishlariga ularning erkinliklarini moslashtiradigan umumii axloqiy standartlarni belgilaydi.

BARQARORTARAQQIYOTTUSHUNCHASININGTA'RIF

I

BARQAROR TARAQQIYOT – iqtisodiy ne'matlarni kelajakdagi avlodlar uchun saqlagan holda adolatli taqsimlash darajasiga erishishdir.

BARQARORTARAQQIYOT – kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini ta'minlagan holda hozirgi ehtiyojlar qondiriladigan rivojlanish jarayonidir.

BARQAROR RIVOJLANISH – g'oyasining maqsadi kelajak avlod ehtiyojlarini e'tiborga olib, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni bir me'yorda ta'minlashdir.

1987 yildan buyon dunyo hamjamiyatining birgalikda hal qilayotgan maqsadlaridan biri mahalliy, milliy, mintaqaviy, global miqyosda barqaror rivojlanishga erishish hisoblanadi.

YUNESKOning madaniy faoliyati madaniy merosni saqlashga qaratilgan bo'lib, 1972 yilda qabul qilingan Butunjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish konvensiyasiga muvofiq, 152 davlat o'z zimmlariga 112 mamlakatdagi 550dan ortiq, olamshumul madaniy yodgorliklarni muhofaza etishda xalqaro hamkorlik qilish yuzasidan majburiyat oldilar. Bu madaniy yodgorliklar ichida Jahon merosi ro'yxatiga kirgan muhofazaga olingan shaharlar, yodgorliklar, milliy bog'lar bor. Vayron bo'lib ketayotgan madaniy yodgorliklar Jahon merosi

ob'ektlari ro'yxatigakirgan. 1970 yilda qabul qilingan YUNESKO Konvensiyasi madaniy mulkning noqonuniy import, eksport qilinishi va berib yuborilishini taqiqlaydi. 1995 yilgi Konvensiya esa noqonuniy olib ketilgan yoki o'g'irlangan madaniy ashyoning o'z vataniga qaytarilishiga yordamlashadi.

TABIAT, JAMIAT VA IQTISODIYOT -bular barqaror rivojlanish taraqqiyotining uch ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, bu omillarning bir-biriga ta'siri qanday bo'lishiga qarab, mamlakatning rivoji barqaror yoki beqaror bo'ladi.

Madaniy faoliyat, shuningdek taraqqiyotning madaniy jabhalarini ragbatlantirishga, yaratuvchilik va ijodiy tafakkur uchun ko'maklashishga, madaniy ashyolar va ogzaki an'analarni ehtiyot qilishga, kitob va mutolaa qilishni targ'ib etishga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi hozirgi kunda O'rta Osiyoda birinchilar qatorida BMT ning hamma eng muhim Barqaror Rivojlanish masalalariga bag'ishlangan Konvensiyalarga qo'l qo'ydi va ratifikatsiya qildi:

- Vena Konvensiyasi i Monreal protokoli (18.05.1993);
- Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Konvensiya (26.06.1993);
- Bioxilma-xillik to'g'risidagi Konvensiya 19.07.1995);
- Cho'llanishga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiya (31.08.1995).
- Global ekologik fondga a'zo bo'ldi. (1996 yil)

Inson tabiiy resurslari iqtisodiyotga emas, balki iqtisodiyotning ehtiyojlarini ta'minlashga xizmat qilish zarur. Barqaror taraqqiyotga erishish uchun ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy, siyosiy barqarorlik omillarining bir vaqtdagi muvozanatli ijobiy o'zgarishi talab etiladi.

Ta'lim muassasalarida talabalar ongida ekologik ong-mafkura-madaniyat, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish- Milliy istiqlol g'oyalari orqali amalga oshirilib, buni mustaqillik yillarida shakllangan,

ozodvaobodVatan, erkinvafarovonhayot,
 huquqiyvademokratikjamiyatbarpoetayotganxalqimizningmaqsad-
 muddaolarivaorzu-intilishlarini,
 jamiyattaraqqiyotiningmafkuraviytamoyillariniifodaetib,
 mamlakatmustaqilliginimustahkamlashgaxizmatqiladiganyaxlitvaizchilta'limotbo'l
 ib, tarixiy, ilmiy, falsafiy,
 dunyoviyvadiniyildizlargaegabo`lgannazariyahamhisoblanadi.

Bugungi kunda yuksak malakali mutaxassislar tomonidan e'tirofetilayotgan“O'zbek modeli” asosida isloh qilinayotgan ta'lim tizimi juda yuqori baholanib, respublikada joriy qilingan uzluksiz ta'lim qaysi bosqichda bo'lmasin, mukammal tarzda amalga oshirilishini taqozo qiladi. Shu maqsadda ta'lim muassasalarida barcha fanlar qatori tabiiy fanlarning o'qitilishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tabiiy fanlarni o'qitishda Yoshlar ongida ekologik tuyg'ularini shakllantirish - Respublikamiz oldida turgan eng dolzarb masalalardan bo'lib, yoshlarni turli zararli oqimlar, ekstremistik g'oyalarga chidamli, jismonan barkamol, intellektual salohiyatli, mustahkam e'tiqodli shaxslar sifatida tarbiyalash nazarda tutiladi. Bu o'rinda muhtaram Prezidentimizning “Mustaqil O'zbekiston davlatining eng katta boyligi- bu uning mehnatkash va fidoiy xalqidir” degan iboralarida juda katta falsafiy ma'no mavjud.

Tabiiy fanlarni o'qitishda yoshlar ongida ekologik tuyg'ularini shakllantirishda quyidagi jarayonlarga e'tiborni qaratishimiz lozim.

-Yoshlarning salomatlik holati, jismoniy rivojlanishining nazorati, o`quv mashg`ulotlarini olib borishda ularning yoshi, tafakkuri, dunyoqarashini va qiziqishlarini hisobga olish va ta'lim tarbiya va o'qitish jarayoni gigiyenasiga jiddiy rioya qilish;

- Ta'lim – tarbiyaning ilg`or, ta'sirchan vositalaridan, zamonaviy o`qitish texnologiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish;

-Ta'lim jarayonida ma'rifiy asosda ish tutish, yoshlarning mustaqil va erkin fikrlashi, bahs-munozara yuritish ko'nikmalarini oshirishga e'tibor qaratish;

-Yoshlar o'rtasida o'zaro hamfikrlik va hamkorlik muhitini shakllantirish, tushuncha va tamoyillarni sharhlashda hayotiy misollar, dunyoda ro'y berayotgan voqealar tahlili hamda ommaviy axborot vositalari materiallaridan keng foydalanish, uslubiy qo'llanmalar, ko'rsatmalar, ommabop maqolalar, videoroliklar tayyoplash va hokozolardir.

Tabiiy fanlarni o'qitishda ekologik tuyg'ularini shakllantirishning asosiy maqsadi - yoshlar ongini ma'naviy jihatdan boyitish, ularda ekologik madaniyatni shakllantirish, ma'nan yetuk, ona Vatanga, tabiatga nisbatan mehr oqibatli, shuningdek, havo, suv va tuproqning musaffolisog'lom avlod uchun kafolat ekanini ularning ongiga singdiradan, kelajakda vatanimiz uchun chinakam sodiq insonlar bo'lib kamol topishlariga ko'maklashishdan iboratdir.

Ekologik tuyg'ularini yoshlar ongiga singdirishning yana bir muhim sharti ularni o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim saviyasi, intellektual salohiyati va ma'lumotlilik darajasidir.

Ekologiya va barqaror taraqqiyot ta'limi masalalari hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan bo'lib, o'qitish jarayonida, tabiat, jamiyat va inson munosabatlari uzviy aloqada ekanligi, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish lozimligini yosh avlodlar ongiga to'g'ri yetkazishda yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish mazkur masalani ijobiy echim topishiga imkon yaratadi. Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, XIX asrning oxiri, XX asrning boshlarida "Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'linga mahkum etish bilan barobardir. Afsuski hali ko'plar bu muammoga beparvolik va mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lmoqdalar"³.

³Karimov I.O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T."O'zbekiston", 1997, 112 b.

Hozirgi globallashuv davrida ekologik muammolar bilan shug'ullanuchi xalqaro tashkilotlarning tezkor holatdagi faoliyati ayniqsa juda muhimdir. Mazkur tashkilotlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti tasarrufiga birlashib, butun jahonda tinchlik va taraqqiyot borasidagi orzu- umidlarning amalga oshirish imkoniyati mavhum bo'lgan ko'plab g'oyat murakkab vazifalarni amalga oshirish uchun harakat qilmoqdalar. Demokratik tamoyillarni keng quloq yozdirish, erkinlikning misli ko'rilmagan imkoniyatlarini ochishga sabab bo'ladi. Shuningdek, globallashuv davri bilim va axborotlarni keng tarqatish, dunyoning har bir burjida taraqqiyot uchun imkoniyatlar yaratish bilan butun dunyoni o'zgartirib yuboradi.

Globalashuv jarayonida BMT, chuqur o'zgarishlar jarayonini boshidan kechirayotgan, mazkur o'zgarishlarni amalga oshirishni tanqidiy baholab, yangilanib borayotgan dunyoning ko'plab talablariga javob berishda o'zining markaziy rolini yanada oshirishga harakat qilmoqda. Jamiyatdagi qarashlar va ezgu maqsadlarni, fundamental o'zgarishlarni zimmsiga olgan global tashkilotning 185 a'zo mamlakatlaridan mislsiz yaratuvchilik, hamkorlik va siyosiy qattiyatlarning talab etilishi tabiiy holdir. Zamonaviy, samarali faoliyat ko'rsatayotgan BMT, aniq maqsadga yo'naltirilgan, ko'p qirrali sayi- harakatlari tufayli ham barqaror hisoblanadi. Bosh assambleya qarshisida puxta ishlab chiqilgan islohot rejalarini qabul qilish, mustahkam moliyaviy baza yaratish maqsadida Xavfsizlik Kengashi va Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashlarni isloh qilish muammolari o'zining hal etilishini kutmoqda. Xalqaro tashkilotlarning turli sohadagi hamkorlik faoliyati barcha mamlakatlarni iqtisodiy jihatdan baquvvat, ekologik jihatdan toza, insonlarni sog'lom, aholi turmush darajasining yuksak bo'lishiga olib keladi.

Ekologik muammolarni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, dunyo tamadduning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ekologik muammolarning ijobiy hal qilinishiga bog'liqdir. Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar bilan hamkorlikda tabiatni, atrof muhitni himoya qilish, tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish masalalariga katta ahamiyat berilib, uning natijasi

o'laroq, atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlari Respublikamizda ko'plab qabul qilinmoqda.

Insoniyatning kelajak taqdiri hozirgi davrda mavjud ekologik muammolarni hal qilinishiga, ulardan aholini, tabiatni qanday muhofaza qilishga bog'liq bo'lib qoldi. Boshqa mintaqalarda sodir bo'lganidek Markaziy Osiyoda, O'zbekistonda ham ekologik muammolar dolzarb bo'lib qoldi. Mamlakatdagi eng xavfli ekologik muammolar toza havo, ichimlik suvi, tuproq tarkibining buzilishi va Orol dengizining qurishi muammolari hisoblanib, mazkur muammolarning har birini ilmiy asoslangan holda qarash, tahlil qilish, oldini olish chora-tadbirlarini belgilaydi.

Bugungi kunda yuksak malakali mutaxassislar tomonidan e'tirof etilayotgan "O'zbek modeli" asosida isloh qilinayotgan ta'lim tizimi juda yuqori baholanib, respublikada joriy qilingan uzluksiz ta'lim qaysi bosqichda bo'lmasin, mukammal tarzda amalga oshirilishini taqozo qiladi. Shu maqsadda ta'lim muassasalarida barcha fanlar qatori tabiiy fanlarning o'qitilishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tabiiy fanlarni o'qitishda Yoshlar ongida ekologik tuyg'ularini shakllantirish - Respublikamiz oldida turgan eng dolzarb masalalardan bo'lib, yoshlarni turli zararli oqimlar, ekstremistik g'oyalarga chidamli, jismonan barkamol, intellektual salohiyatli, mustahkam e'tiqodli shaxslar sifatida tarbiyalash nazarda tutiladi. Bu o'rinda muhtaram Prezidentimizning "Mustaqil O'zbekiston davlatining eng katta boyligi- bu uning mehnatkash va fidoiy xalqidir" degan iboralarida juda katta falsafiy ma'no mavjud.

Tabiiy fanlarni o'qitishda yoshlar ongida ekologik tuyg'ularini shakllantirishda quyidagi jarayonlarga e'tiborni qaratishimiz lozim.

-Yoshlarning salomatlik holati, jismoniy rivojlanishining nazorati, o'quv mashg'ulotlarini olib borishda ularning yoshi, tafakkuri, dunyoqarashini va

qiziqishlarini hisobga olish va ta'lim tarbiya va o'qitish jarayoni gigiyenasiga jiddiy rioya qilish;

- Ta'lim – tarbiyaning ilg'or, ta'sirchan vositalaridan, zamonaviy o'qitish texnologiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish;

-Ta'lim jarayonida ma'rifiy asosda ish tutish, yoshlarning mustaqil va erkin fikrlashi, bahs-munozara yuritish ko`nukmalarini oshirishga e'tibor qaratish;

-Yoshlar o`rtasida o`zaro hamfikrlik va hamkorlik muhitini shakllantirish, tushuncha va tamoyillarni sharhlashda hayotiy misollar, dunyoda ro`y berayotgan voqealar tahlili hamda ommaviy axborot vositalari materiallaridan keng foydalanish,uslubiy qo'llanmalar, ko'rsatmalar, ommabop maqolalar, videoroliklar tayyoprlash va hokozolardir.

Tabiiy fanlarni o'qitishda ekologik tuyg'ularini shakllantirishning asosiy maqsadi - yoshlar ongini ma'naviy jihatdan boyitish, ularda ekologik madaniyatni shakllantirish, ma'nan yetuk, ona Vatanga, tabiatga nisbatan mehr oqibatli, shuningdek, havo, suv va tuproqning musaffolisog'lom avlod uchun kafolat ekanini ularning ongiga singdiradan, kelajakda vatanimiz uchun chinakam sodiq insonlar bo'lib kamol topishlariga ko'maklashishdan iboratdir.

Ekologik tuyg'ularini yoshlar ongiga singdirishning yana bir muhim sharti ularni o`zlashtirishi lozim bo`lgan bilim saviyasi, intellektual salohiyati va ma'lumotlilik darajasidir.

